

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

**5110902-PEDAGOGIKA VA PSIHOLOGIYA  
YO‘NALISHI  
2-KURS MAGISTRANTI FERUZA XOJIMATOVANING**

**YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISHDA  
HUNARMANDCHILIK MAKTABLARINING TUTGAN  
O‘RNI  
mavzusidagi**

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI  
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI**

<b>Qayddan o‘tkazildi</b> № _____ « _____ » _____ 2017 yil	<b>Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga tavsiya etildi</b> Ilmiy rahbar: _____ p.f.n., dotsent M.Artikova (imzo)  <b>Himoyaga tavsiya etildi</b> Kafedra mudiri: _____ p.f.n., dotsent M.Artikova (imzo)  « _____ » _____ 2017 yil
--	---

## ANNOTATSIYA

Hunarmandchilik maktablarining mehnat va kasb-hunar ta'limida muntazam o'rganilishi o'g'il va qiz bolalar mehnatini, qishloq va shahar maktablarida muqobil mashg'ulotlarning tashkil etilishini va qolaversa, yoshlarning ta'lim muassasasini bitirganlaridan so'ng doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishlarini ma'lum tartibga soladi. YOshlarning ma'naviy barkamol bulib etishishida, ularda milliy rux va iftixor hissini uygotishda xalq hunarmandchiligining roli beqiyosdir. Mamlakatimiz moddiy madaniyati tarixida muhim mavqeni egallagan xalq hunarmandchiligi shunday xazinaki, unda xalq hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar aks etadi.

SHu jihatdan olib qaralganda yoshlarni kasbga yo'naltirishda hunarmandchilik maktablarining tutgan o'rni muhim ahamiyat kast etadi.

Ishning mazmunida hunarmandchilik maktablari bilan bog'liq xorijiy tajribalar va yoshlarni kasbga tayyorlashdagi ahamiyati, xalq hunarmandchiligi turlari, maktablari va ularning rivojlanishi, mustaqillik sharoitida milliy hunarmandchilikning rivojlanishi, xalq hunarmandchiligi maktablari asosida yoshlarni kasbga tayyorlashning mazmuni, xalq hunarmandchiligi maktablari asosida yoshlarni kasbga tayyorlashning shakli, metodlari va ilg'or tajribalar, milliy hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yo'naltirish kabi masalalar yoritilgan.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	.....	5-8
<b>1 BOB.</b>	<b>XALQ HUNARMANDCHILIGI, UNING RIVOJLANISHI VA JAMIYAT IJTIMOY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI.....</b>	<b>9</b>
1.1.	Xalq hunarmandchiligi turlari, maktablari va ularning rivojlanishi.....	9-32
1.2.	Mustaqillik sharoitida milliy hunarmandchilikning rivojlanishi....	32-38
	<b>BIRINCHI BOB YUZASIDAN XULOSALAR.....</b>	<b>39</b>
<b>2 BOB.</b>	<b>HUNARMANDCHILIK MAKTABLARIDA YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISH TAJRIBALARI.....</b>	<b>40</b>
2.1.	Milliy hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yo‘naltirish.....	40-46
2.2.	Hunarmandchilik maktablari bilan bog‘liq xorijiy tajribalar va yoshlarni kasbga tayyorlashdagi ahamiyati.....	46-52
	<b>IKKINCI BOB YUZASIDAN XULOSALAR.....</b>	<b>53</b>
<b>3 BOB</b>	<b>XALQ HUNARMANDCHILIK MAKTABLARI ASOSIDA YOSHLARNI KASB-HUNARGA O‘RGATISH METODIKASI VA UNING SAMARADORLIGI.....</b>	<b>54</b>
3.1.	Hunarmandchilik maktablarida yoshlarni kasbga tayyorlashning mazmuni.....	54-61
3.2.	Hunarmandchilik maktablarida yoshlarni kasbga tayyorlashning shakli, metodlari va ilg‘or tajribalar.....	61-74
	<b>UCHINCHI BOB YUZASIDAN XULOSALAR.....</b>	<b>75</b>
	<b>UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR.....</b>	<b>76-77</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....</b>	<b>78-83</b>

# **MAVZU: YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISHDA HUNARMANDCHILIK MAKTABLARINING TUTGAN O‘RNI**

## **KIRISH**

### **1 BOB. XALQ HUNARMANDCHILIGI, UNING RIVOJLANISHI VA JAMIYAT IJTIMOY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI**

1.1. Xalq hunarmandchiligi turlari, maktablari va ularning rivojlanishi

1.2. Mustaqillik sharoitida milliy hunarmandchilikning rivojlanishi

### **2 BOB. HUNARMANDCHILIK MAKTABLARIDA YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISH TAJRIBALARI**

2.1. Milliy hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yo‘naltirish

2.2. Hunarmandchilik maktablari bilan bog‘liq xorijiy tajribalar va yoshlarni kasbga tayyorlashdagi ahamiyati

### **3 BOB. XALQ HUNARMANDCHILIK MAKTABLARI ASOSIDA YOSHLARNI KASB-HUNARGA O‘RGATISH METODIKASI VA UNING SAMARADORLIGI**

3.1. Hunarmandchilik maktablarida yoshlarni kasbga tayyorlashning mazmuni

3.2. Hunarmandchilik maktablarida yoshlarni kasbga tayyorlashning shakli, metodlari va ilg‘or tajribalar

## **UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR**

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda madaniy-ma'naviy qadriyatlarni saqlash, xalq amaliy san'ati, milliy hunarmandchilik an'analarini qayta tiklash va ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash masalasiga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni<sup>1</sup> bunga yorqin misoldir. Mazkur yo'nalishda davlat tomonidan badiiy hunarmandchilikning ma'lum tarmoqlariga bag'ishlangan bir qator ko'rgazmalar, ekspozitsion namoyishlar, festivallarning tashkil etilishi, yangi muzeylar, ustoz-shogirdlik maktablarining tuzilishi e'tiborga loyiq.

YOshlarning ma'naviy barkamol bulib etishishida, ularda milliy rux va iftixor xissini uygotishda xalq hunarmandchilikning roli bekiyosdir. Mamlakatimiz moddiy madaniyati tarixida muxim mavkeni egallagan xalq hunarmandchilik shunday xazinaki, unda xalk xayotiga oid kimmatli ma'lumotlar aks etadi. Uzbek xalk madaniy xayotining rivojlanishida va uning modiy va ma'naviy boyliklarini vujudga keltirishda mazkur soxaning axamiyati kattadir. Birinchi Prezident I.A.Karimov bir guruh tarixchi olimlar bilan bulgan uchrashuvda "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati orqali bilamiz" degan edi. O'zbekistonning mustaqilligi milliy madaniyatimiz, ayniqsa xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi taraqqiyotiga keng yo'l ochib berdi.

Qadimdan rivoj topib kelayotgan naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, badiiy kulolchilik, misgarlik, kashtachilik turlari gurkirab o'sa boshladi. Uning milliy badiiy an'analari yanada rivojlanmoqda. San'atni unutib ketgan ayrim turlari xisoblangan matoga gul bosish, suyak va tosh

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Xalq «Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.

o‘ymakorligi, zargarlik, pichoqchilik, gilamchilik turlari qayta tiklandi. Amaliy san‘at va xalq-hunarmandchiligining yangi turlari chinni xaykaltaroshligi, charmda minatyura ishlash, qovoq shakliga naqshlar bilan ishlov berish kabi turlari paydo bo‘ldi.

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, dunyo miqyosida turli davlatlarda ta‘lim sifati, yoshlarni kasbga tayyorlash me‘yorlari, kompetentligiga qo‘yiladigan talablar turli nufuzli tashkilotlar tomonidan maxsus o‘rganiladi, zaruriy indikatorlar belgilab boriladi. YUNESKOning “Texnikaviy kasb-hunar ta‘limi to‘g‘risida”gi Konvensiyasi<sup>2</sup>da taqdim etilgan yoshlarning kasb-hunar egallashida tayanilishi zarur bo‘lgan mezonlar kasb-hunar egalarining kasbiy kompetentligiga bevosita taalluqlidir.

O‘zbek xalq amaliy san‘atida yangidan paydo bo‘lgan yo‘nalishlar xisoblangan go‘zal xaykallar ishlash, qovoqdan ishlangan idishlarni naqshlash, charm materiallariga minatura ishlash gazmolga gul bosish, tosh o‘ymakorligi kabi san‘at turlari bo‘yicha olib borilayotgan ishlar diqqatiga sazovordir.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Iqtisodiy islohotlar mazmuni va yo‘nalishlari, hunarmandchilik tadbirkorligi faoliyatining mohiyati, shakllari, tadbirkor-hunarmandlarga xos sifatlar, ularning ma‘naviy-ahloqiy qiyofasi masalasi SH.Axunova, A.Ibrohimov, R.Ismoilov, R.Muhiddinov, X.R.Sanaqulov, K.SH.Sirojiddinov, T.Ergashev, R.R.Hakimov, J.Hasanboev va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Ta‘lim tizimida iqtisodiy ta‘limni tashkil etish, oila tadbirkorligi, hunarmandchilik, kasanachilikni tashkil etish shartlari, ustoz-shogird munosabatlari S.Boboqulov, B.Irisqulov, X.J.Xudoyqulov, SH.A.Eshmetov, A.Qudratov va SH.Quvondiqovlarning ishlarida tahlil qilingan.

O‘smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonining psixologik

---

<sup>2</sup> YUNESKOning “Texnikaviy kasb-hunar ta‘limi to‘g‘risida”gi Konvensiyasi. 1998 yil, 10 noyabr.

jihatlari o'rganish ham kutilgan natijani qo'lga kiritish imkonini beradi. SHu jihatdan olganda SH.Baratov, S.Boboqulov, U.S.Jumaev, K.Jo'raev, N.Q.Kamolova, X.A.Umarova, X.J.Xudoyqulov kabilarning ishlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularda o'smirlarning yosh, psixologik va fiziologik xususiyatlari, ularning mehnat va ishlab chiqarishga bo'lgan munosabatlari, muayyan hunar asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, ehtiyojlari, shuningdek, boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga tayyorlash muammolari o'rganilgan.

Tadbirkorlik faoliyatida hunarmandchilik o'ziga xos o'rin tutadi, shuningdek, mazkur soha yoshlarni ishlab chiqarish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlarida ham katta tarbiyaviy ta'sirga ega. R.Abdullaeva, V.Alekseev, X.Abdulqosimov, Z.Bositxonov, S.Bulatov, M.Haydarov, D.A.Zohidova, B.Irisqulov, V.A.Mazur, F.T.Davidova, R.Sarsenbaeva, S.Salaev, X.Usmonov, N.SHodiev, M.Abdurahmonova, G.SHodieva, M.Pardaeva, F.Ergashev hamda R.Qilichevlarning tadqiqotlarida hunarmandchilik yo'nalishlari va ularning tarixiy rivoji, milliy hunarmandchilikning o'ziga xos jihatlari hamda tarbiyaviy imkoniyatlari, turli hududlarda rivojlangan hunarmandchilikning o'ziga xos xususiyatlari, kasanachilikning xususiy tadbirkorlikni tashkil etishdagi o'rni masalalariga to'xtalib o'tilgan.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarga qaramasdan bugungi kunda xalq hunarmandchiligi asosida yoshlarni kasbga tayyorlash tadqiqot olib borishni taqozo etmoqda. SHu sababli ham tadqiqotimizni **“Yoshlarni kasbga yo'naltirishda hunarmandchilik maktablarining tutgan o'rni”** deb olishimiz va bu mavzuni dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

**Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi:** dissertatsiya Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasining **“Zamonaviy sharoitda ta'lim-tarbiya**

**jarayonini samarali tashkil etishning nazariyasi va amaliyoti”** nomli bosh ilmiy-tadqiqot mavzusi, shuningdek kafedrada bajarilayotgan A-1-41-raqamli amaliy tadqiqot granti doirasida tayyorlandi.

**Tadqiqot ishining maqsadi:** yoshlarni kasbga yoʻnaltirishda hunarmandchilik maktablarining tutgan oʻrnini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va mavzu yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob’ekti:** hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni kasbga yoʻnaltirish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** yoshlarni kasbga yoʻnaltirishda hunarmandchilik maktablarining tutgan oʻrnini tadqiq etish, uning mazmuni, metodlari, shakllari, texnologiyalari va omillari.

**Tadqiqot ishining vazifalari:**

- mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan dolzarbligini asoslash;
- xalq hunarmandchiligi turlari, maktablari va ularning rivojlanishini yoritish;
- mustaqillik sharoitida milliy hunarmandchilikning rivojlanishini tavsif etish;
- hunarmandchiligi maktablari asosida yoshlarni kasbga tayyorlashning mazmunini ochib berish;
- xalq hunarmandchiligi maktablari asosida yoshlarni kasbga tayyorlashning shakli, metodlari va ilgʻor tajribalarni aniqlash;
- milliy hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yoʻnaltirishni asoslash;
- hunarmandchilik maktablari bilan bogʻliq xorijiy tajribalar va yoshlarni kasbga tayyorlashdagi ahamiyatini asoslab berish.

**Tadqiqotning ilmiy farazi.** Hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni kasbga yoʻnaltirishda samaradorlikka erishish mumkin, agarda:

- hunarmandchilik maktablari asosida yoshlarni kasbga tayyorlashning mazmuni ochib berilsa;

- hunarmandchiligi maktablari asosida yoshlarni kasbga tayyorlashning shakli, metodlari va ilgʻor tajribalari aniqlansa;
- milliy hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yoʻnaltirish asoslab berilsa;
- hunarmandchilik maktablari bilan bogʻliq xorijiy tajribalar va yoshlarni kasbga tayyorlashdagi ahamiyati tadqiq etilsa;
- oʻsmirlarni hunarmandchilik tadbirkorligi faoliyatiga tayyorlashga oid mahalliy tajribalarni oʻrganish asosida ilgʻor gʻoyalar umumlashtirilsa;
- yoshlarni kasbga tayyorlashda samaradorlikni taʼminlashga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa.

**Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:**

- tadqiqot mavzusiiga oid ilmiy-falsafiy, psixologik-pedagogik, tarixiy adabiyotlar, oʻquv-metodik qoʻllanmalarni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etish;
- pedagogik kuzatuv;
- pedagogik tajribalarni oʻrganish va umumlashtirish;
- tadqiqot mavzusi boʻyicha suhbatlar tashkil etish;
- tadqiqot natijalarini umumlashtirish.

**Tadqiqotning metodologik asosi.** Oʻzbekiston respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov va Prezidentimiz SH.Mirziyoevning nutq va maʼruzalaridagi xalq badiiy hunarmandchiligi, tadbirkorlik va kichik biznesni yanada takomillashtirishga doir fikrlar hamda yondashuvlar, Oʻzbekiston respublikasi Hukumati meʼyoriy Hujjatlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik, metodik manbalar.

**Ishning ilmiy yangiligi:**

- xalq hunarmandchiligi turlari, maktablari va ularning rivojlanishi oʻrganildi;
- xalq hunarmandchiligi maktablari asosida yoshlarni kasbga

tayyorlashning mazmuni ochib berildi;

- hunarmandchilik maktablari asosida yoshlarni kasbga tayyorlashning shakli, metodlari va ilgʻor tajribalari aniqlandi;

- milliy hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yoʻnaltirish asoslandi;

- hunarmandchilik maktablari bilan bogʻliq xorijiy tajribalar va yoshlarni kasbga tayyorlashdagi ahamiyatini asoslab berildi.

#### **Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:**

- xalq hunarmandchiligi, uning rivojlanishi va jamiyat ijtimoiy hayotida tutgan oʻrni;

- mustaqillik sharoitida milliy hunarmandchilikning rivojlanishi;

- hunarmandchilik maktablarida yoshlarni kasbga yoʻnaltirish tajribalari;

- xalq hunarmandchilik maktablari asosida yoshlarni kasb-hunarga oʻrgatish metodikasi va uning samaradorligi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:** tadqiqot natijasida pedagogika fani hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni kasbga yoʻnaltirishga oid nazariy yondashuvlar, qarashlar, ilmiy-metodik tavsiyalarga bilan boyitiladi. Jamlangan manbalar, turli yondashuvlar, xulosalar va nazariy umumlashmalar ilmiy izlanuvchilar uchun axborot manbai boʻla oladi.

**Tadqiqot bosqichlari.** Tadqiqot quyidagi ikki bosqichda amalga oshirildi:

- birinchi bosqich (2015-2016) da tadqiqot muammosiga oid pedagogik, psixologik, falsafiy hamda ilmiy adabiyotlar oʻrganildi, tahlil qilindi, tajriba-sinov obʻektlari belgilandi, hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni kasbga yoʻnaltirishning mavjud holati oʻrganildi;

- ikkinchi bosqich (2016-2017) da hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni kasbga yoʻnaltirishga oid nazariy bilimlar asosida uning

mazmuni aniqlandi; keng ko‘lamdagi tajriba-sinov ishlari tashkil etildi; natijalar tahlil etildi, umumlashtirildi va ustuvor jihatlari aniqlandi.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi:** tadqiqotning muhim nazariy g‘oya va amaliy natijalari “Ta‘lim tizimida ijtimoiy gumanitar fanlar” jurnalida, “Yoshlarni qo‘shimcha kasbga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik masalalari” mavzusida 2016 yil 15 mart kuni Andijon davlat universitetida bo‘lib o‘tgan respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plamida chop etildi.

**Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi:** ish kirish, 3 bob, 6 bo‘lim, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami 83 sahifani tashkil qiladi.

# **1 BOB. XALQ HUNARMANDCHILIGI, UNING RIVOJLANISHI VA JAMIYAT IJTIMOIIY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI**

## **1.1. Xalq hunarmandchiligi turlari, maktablari va ularning rivojlanishi**

Xalq hunarmandchiligi juda qadim zamonda paydo bo‘lib, hunarmandchilikning eng qadimgi rivojlangan va barhayot turi bo‘lib kelgan. YAqin o‘tmishda halq hunarmandchiligining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘och, tosh va suyak o‘ymakorligi, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo‘zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo‘yrachilik kabi turlarni o‘ziga xos bajarish texnologiyalari xaqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, nom qozongan ustalar yo‘qolib ketishi havfi ostida qolgan edi.

Ganchkorlik qadimiy san’at turlaridan biri O‘rta Osiyoda yaratilgan asarlar o‘ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi. U Samarqand Buhoro, Toshkent, Qo‘qon, Marg‘ilon, Xiva, SHaxrisabz va boshqa shaharlardagi tarixiy obidalarni qurish va bezatishda ishlatilgan. III asrda qal’aning serhasham saroy mehmonxonalari o‘yma ganch bilan bezatilgan Varaxsha shaharchasida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan va eramizdan avvalgi III-IV asrlarda ishlangan ganch o‘ymakorligi namunasi topilgan. Varaxshadagi topilmalardan VII-VIII asrlardagi Buhoro saroyi qoldiqlaridan namunalar topilgan. Ganch o‘ymakorligi turlari mavjud yirik, chuqur, yassi, qirma, zamini, ko‘zgul, zamini rangli, chizma pardaz, panjarasimon, zanjira, xajmli o‘yma. Ganj o‘ymakorlari Toshkentda Usmon Ikromov Usta Toshpo‘lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Hayot Abdullaev, Ziyodulla YUsupov, Toxir Umarov. Ganch o‘ymakorligida ishlatiladigan material ganch, gips, shirach (kley).

O‘rta Osiyo naqqoshlik san’ati qadimdan dunyoga mashhur. O‘rta Osiyo territoriyasida arxeologik qazilmalardan Xorazm, Sug‘d, Baqtriya va

boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum.

XI-XII asrlarda O'zbekiston hududidagi arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan. Har bir viloyatning o'z maktabi bo'lgan.

Naqshni o'z atamalari mavjud.

Gul-naqsh so'zi o'rnida ishlatiladi.

Morner – (morilon, nech-o'ralgan) ilan izm.

Ruta – ruscha xoshiya naqsh.

Jismi durarbar – ikki yo'nalishli ximoya naqsh

Namoyon forscha – ko'rinish.

Naqshlikda qalam, lineyka, o'chirg'ich, bo'yoqlar ishlatiladi.

Qog'ozga naqsh solishni o'rganish uchun dastavval to'g'ri, egri, tik, aylana chiziqlarni chamalab bo'lishdan boshlanadi. CHizish vaqtida simmetriya, asimmetriya va boshqalarga e'tibor beriladi.

YOg'och o'ymakorligi san'ati keng tarqalgan. Bunda buyumlarga chizib, kesib, o'yib ishlanadi. V-VI asrlarda yog'och o'ymakorligi namunalari Surxondaryo vohasidagi YUmaloq tepa tubidan topilgan. VII asrning oxirigacha mahalliy yog'och o'ymakorlik juda tez sur'atlar bilan rivojlangan edi. YOg'och o'ymakorligi bilan eshiklar, binolar, ustun, ravoq har xil xontaxtalar bezatilgan. YOg'och o'ymakorligida ota-bobolarimiz qadimdan har xil yog'ochlardan turli maqsadda foydalanib kelganlar. YOg'och xususiyatlari sinchiklab o'rganilib, keyin yog'ochga o'yib naqsh ishlangan. yog'och o'ymakorligida turli asboblarda ishlatilib ular o'ziga xos ishlarni bajaradi. YOg'och o'ymakorligida asboblarda ikki turga bo'linadi «o'yma qalamlar» va «naqsh qalamlar» asboblarda shakli va bajaradigan ishga qarab uskunalarning bir qancha xillarga bo'linadi chizg'ich, sirkul, uchburchaklar, transformator.

Naqsh o'ymakorligi I-III asrlarda O'zbekistonning janubiy binolarni ustunlari hamda poydevorlarini bezashda xarsangtosh, marmartosh va

oxaktoshdan foydalanganlar. XV asrda Oʻrta Osiyoda ayniqsa tosh-taroshlik rivojlandi va takomillashdi.

Amir Temur, Axmad yassaviy maqbarasi, Bibixonim machiti va boshqalar jozibador qilib bezatildi. Samarqandlik sangtosh usta Jalol Joʻraev mashxur meʼmor Abduraym Obidov tosh oʻymakorlik sirlarini argangan. Tosh oʻymakorligida – asosiy material toshmarmar, gipstosh.

Asboblardan bolgʻa, zubila, iskana, arra, pichoq, parma.

Suyak oʻymakorligi Xindiston, YOqutiston, Afrika, Xitoy sharq mamlakatlarida rivojlangan suyak oʻymakorligi Oʻzbekistonga 1959 yil kirib kelgan. Suyak oʻymakorligida parma, arra, egovhamda oʻziga hos mukammal mehanik asboblardan ishlatiladi.

Kandakorlik – metaldan yasalgan badiiy buyumlarga oʻyib yoki boʻrtik qilib naqsh ishlash.

Arxeologik topilmalardan II-III asrlarda rivojlanganligi aniqlangan. Mis idishlarning yasashning texnik usuli mavjud.

Kulolchilik qora loydan moʻjizakor goʻzallik yaratgan. VIII-XII asrlarda kulolchilik Oʻrta Osiyoda yozshi rivojlangan. Kulolchilikda loy, charx ishlatiladi.

Pichoqchilik sanʼatida pichoq yasaladi. VI-XII asrlarda pichoq yasash rivojlanib uni bezash texnologiyalari oʻzgargan.

Respublikamizda yigirmaga yaqin pichoqchilik markazlari bor.

Pichoq tigʻ, dasta, qindan iborat. Pichoqchilikda oʻchoq, dam, sandan, egov, bolgʻa, ishlatiladi.

Oʻzbek zargarligi juda qadimiy tarixga ega. Unga ibtidoiy jamoa tuzumi davrida asos solingan.

Eramizgacha boʻlgan I asrdan boshlab rivojlangan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Oʻrta Osiyo xonliklari oʻrtasida badiiy hunarmandchilik rivojlandi.

Kashtachilik – juda qadimiy hunar. U chet ellarda ham shuhrat

qozongan.

Zardo'zlik – zar (tilla) do'zi (tikmoq) forscha so'zidan olingan.

Zardo'zlik XV-XVII asrlarda eron podsholigi saroyida rivojlangan.

Zardo'zlikda 30 xil klassik tikish usuli mavjud. Zardo'zlik – gulduza va zamindo'zi turlari bo'ladi.

VI asrda O'zbekistonda gilam to'qish san'ati rivojlanganligi aniqlangan.

Kigiz bosish, savatchilik ham qadimiy hunar turlaridandir.

Naqsh – arabcha tasviri gul degan man'oni anglatadi. Qush,xayvon,o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishdan xosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashta do'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik,zargarlik,gilam to'qish, to'qimachilik va hokazolarda har xil yo'llar bilan ishlanadi. Misol: o'yib chizib, chok yordamida, zarb bilan qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi.

Naqqoshlik san'ati insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadiymiydir. Har hil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi.

Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muxitiga:geografik o'rniga, o'lkaning umumlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. M: Arman va Gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va xar xil xayvonlar, qirg'iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'ramiz.

O'zbek xalqining qarovsiz yot madaniy durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to'plashni davlatimiz, o'z zimmasiga oldi. Madaniy yodgorliklarini saqlash jamiyati tuzildi.

Naqsh ustalari ham boshqa ustalar qatori masjid, madrasa turar joylarni, saroylarni ta'mirlashni boshlab yubordilar. O'ttiz yillardan so'ng ko'pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat badiiy merosini ilxomlanib

ajoyib devoriy rasmlar yaratdilar. O'zbek xalqi 2000 yil davomida xalq amaliy san'atini shunday amaliy namunalari yaratdiki barchani lol qoldirib kelmoqda.

***Toshkent naqqoshlik maktabi.*** Toshkent naqshlari o'zining nafisligi va ranglarning bir-biriga asta-sekin o'tishi aniq bir kaloritga qat'iy rioya qilinishi geometrik va o'simliksimon naqshlarning ko'p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko'pincha yashil gammada ishlanadi. O'simliksimon naqshlardan oygul, paxta bofta, uch barg, shukufta bargli gul va boshqa elementlar aniq etishtirilgan. Murakkab geometrik naqshlar ishlanadi. Naqqosh ustalardan Jalil Hakimov, Toir To'htaxo'jaev, Olimjon Qosimjonov, YOqubjon Raufov, Anvar Ilhomov, Komil Karimov va boshqalar Toshkent naqqoshlik maktabining asoschilaridir.

Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksi xusn – jamolini dunyo me'morchiligida nomoyon etib kelmoqda. Ayniqsa O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi.

Hozirgi kunda ganch serquyosh O'zbekistonimizda ardoqlanib, avaylab muxofaza qilinayotgan ko'pgina yodgorlik obidalariga ko'rkamlik, go'zallik baxsh etib turibdi. Ganch o'ymakorlik san'ati asirlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san'atning eng qadimgi o'rta asrlardagi va XX asrda rivojlanishni ko'zdan kechirib, o'rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o'ymakorligi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Qadimgi ganch o'ymakorligi ham bo'lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Varaxmadagi topilmalardan VII-VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan namunalari topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlarni, o'simliksimon va geometrik shakllarining o'yma namunalari ko'rish mumkin. O'rta Osiyoni arablar bosib olgandan keyin islom dini xukmron bo'lib qoldi, u tirik mavjudotni tasvirlashni taqiqladi. Buni O'rta Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan ko'rish mumkin. Xususan VII-VIII asrlardagi

xukmronliklarning Varaxmadagi saroylarda bu san'atning xilma-xil namunalari saqlangan. O'zbekistonda ganch o'ymakorlik san'ati ham juda qadimdan rivojlangan bo'lib hozirgi kunda ham o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotmagan. O'zbekistonda hunarmandlar bo'limi 1918 yilda tashkil etilgan bo'lib uning asosiy maqsadi hunarmandchilik bo'yicha izlanishlar olib borish, iqtisodiy statistik malumotlarini qayta ishlab chiqish, ishlab chiqarishga tarqatish, maktablarda tashkil qilish o'quv ustaxonalarini tiklash, muzeylar hunarmandlar birlashmasini tashkil etish va boshqalar edi.

**Xiva zali.** Ganch o'ymakorlik ishlarini Xivalik ustalar S.Xudayberganov, K.Polvonov, B.Bobojonov, R.Masharipov va uning shogirdlari bajargan bo'lib qadimiy uslubda bezatilgan. Bezaklar asosan medalyon shaklida qilib o'yilib Xivadagi koshinga o'xshab ketadi. Bu o'yma uncha chuqur bo'lmay juda mayda o'yilgan xuddi yog'ochdan o'yilganga o'xshaydi.

**Termiz zali.** Bu zalning naqsh kompozitsiyalarni Usta SHirin Murodov Termiz usulida mo'ljallab chizgan. O'yma ishlarini Usta SHirin Murodov, G'. Ne'matov va boshqalar bajargan. XII asr Termiz saroyidagi ganch o'ymakorligini eslatadi.

**Farg'ona zali.** Ganch o'ymakorligi va naqsh kompozitsiyalarni Quqonlik Sait Maxmud Norqo'zi bajargan. O'yma ishlariga Jalil Marasulov va ko'pincha Farg'ona ustalari qatnashgan. Farg'ona zalining shifti qovurg'ali qilib ganch o'ymakorligi kompozitsiyalari bilan bezatilgan. Bu Farg'ona vodisidagi an'anaviy badiiy uslubni anglatadi.

**Samarqand zali.** Ganch o'ymakorligi ishlarikompozitsiyalarini davlat mukofoti laureti Q.Jalilov va boshqalar bajargan. B zal sharafo kompozitsiyalarini, geometrik ornamentlarini, namoyon, ruta zanjira kompozitsiyalarining ajoyib namunalari ishlangan. Shiftga geometrik naqsh grif o'yilib oralariga o'yma ismli naqsh kompozitsiyalari bajarilgan.

**Buxoro zali.** Bu zalning naqsh kompozitsiyalarini va o'ymalarini Usta

SHirin Murod bajargan.U Buxorocha miliy va zamonaviy usulni qo‘llagan.

Uning oyna zaminli ganch o‘ymakorligi xonani yanada keng qilib ko‘rsatadi. Unda ajoyib va murakkab sharafalar,qandillar namoyonlar kishi diqqatini o‘ziga tortadi. Keksa Usta SHirin Murod Buxoroliklarga xos «tabaqa pardoz» deb ataladigan murakkab uslubni bizgacha etkazib kelib Buxoro zalida oynai jaxon ko‘rdi.U ajoyib qandil ishlab uyning shiftiga qubbali qilib muqarnas ishladi.

**Toshkent zali.** Toshkent zaliga Toshpo‘lat Arslonqulov kompazitsiya chizdi. Guldasta, marafa,namoyon,rutalar yuqori relefli qilib bajarildi. Toshpo‘lat Arslonqulov o‘yma naqsh solish texnikasi, «muqarnas», «majnuntol», «choka pardoz», «zanjiri», «shoxbars» kabi uslublarini amalda qo‘llab,taraqqiy ettirilishi bilan birga «chor burchak», «quvacha islimi», «palak islimi» kabi kompozitsiyalar bilan bezadi. 1961 yil Alisher Navoiy nomidagi katta Akademik opera va balet teatrning ganch o‘ymakorligi bezaklari qayta tiklandi.

Xorazm o‘zining qadimiy yodgorliklari bilan jahonga mashhurdir. Xorazmdagi Islomxo‘ja minorasi,Faxriddin Rozi maqbarasi, Juma maschiti va boshqa tarixiy obidalar O‘rta asr SHarq me‘morchilik san’atining go‘zal namunalaridan biridir. Ular o‘zining sodaligi va naqsh motivlarining ulug‘vorligi bilan dunyoga don taratgan. Xivadagi tarixiy obidalarning har bir shaxar me‘morchilik ansamblining tarkibiy qismi bo‘lsa-da, ammo ularning har qaysisi o‘ziga xos takrorlanmas san’at asaridir.

Xorazm me‘morchilikning manzarali bezaklarida geometrik naqsh keng o‘rin olgan bo‘lib, O‘zbekistonning boshqa viloyatlariga qaraganda o‘ziga xosligiga ega. Lekin ular juda kam farq qiladi. Ayniqsa, o‘simliksimon naqshlar spiral shaklida aylanma harakatchanligi, dinamikligi bilan farq qiladi. Xorazmda «madoxil», «turunj», «qalampir» shaklidagi naqsh kompozitsiyalari va boshqalar keng o‘rin olgan. Xorazm ganch o‘ymakorligining naqsh kompazitsiyasi so‘zanani eslatadi. Sirli koshin

naqshlariga qaraganda ganch o‘ymakorlik, yog‘och o‘ymakorlik Xorazmda uncha rivoj topmagan bo‘lsada lekin o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa shaxarlarda o‘yilgan naqishlardan farq qiladi. Ganch o‘ymakor ustalar ko‘p bo‘lsa-da, lekin ba’zilari o‘ymaga moslab naqsh kompazitsiyasi chiza olmas edilar. SHuning uchun ular maxsus naqsh chizib beruvchilarga murojat qilar edilar.

Xorazm ganch o‘ymakorligi san’ati tobora yuksalib bormoqda. Hozir Xorazmda qurilayotgan ko‘p qavatliy salobatli binrlar ganch naqishlari bilan bezalmoqda. Ganchkorlik sanatini ajoyib namunalarini muzeylarda, ko‘rgazmali xonalarda, maishiy binolarda, kofe, restoran, zavod, fabrika, teatr hattoki turar joylarda ham uchratish mumkin.

Ganch o‘ymakorligi san’ati asrlar davomida o‘ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san’atning eng qadimgi, O‘rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishni ko‘zdan kechirib, o‘rganib chiqsak, bu davrdagi ganch o‘ymakorligi bir-biridan ancha farq qiladi. Qadimgi ganchkorlik hajmiy bo‘lib realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko‘pincha odamlar, xayvonlar, qushlar tasviri ishlangan.

Kashtachilik - kashta tikish kasbi, amaliy san’atning qadimiy soxalaridan biri bo‘lib kelgan. Arxiologik topilmalar kashtachilikning deyarli barcha xalqlarda qadiymiyligini, iqlim, tabiy sharoit, muxit bilan bog‘liq xolda xar bir xalqning madaniyati, san’ati, kasb hunar turlari bilan birga, ularni tasiri bilan rivoj topganini ko‘rsatadi. Kashtachilikni paydo bo‘lishi teridan qilingan kiyimlarda bog‘lam va choklarni yuzaga kelishi bilan bug‘liq.

Davirlar mobaynida toshlardan suyaklardan bigizlarga metal begizlardan o‘tish bilan, to‘qish, shuningdek mato to‘qish bo‘yash va boshqa ishlar bilan bog‘liq. Kashtachilik taraqqiyotni Qadimgi Osiyo, Evropa, Amerika, madaniy yodgorliklari adabiy manba’lardagi kashtalar tasvirida, shuningdek, saqlanib qolgan kashtachilik namunalardan kuzatish mumkin.

Kashtachilik maxsulotining eng qadimiy nosxalari saqlanmagan.

Kashtachilik rivojlangan xaqlarda unga tasviriy san'atni tasiri katta bo'lgan. Masalan: XI asrga oid ingliz kashtalarida jang lavxalari aks ettirgan.

O'rta Osiyoda ayniqsa, o'zbek, turkman, tojik ayollari o'rtasida Kashtachilik keng tarqalgan. Kashta tikish uslublari turli-tumanliligi o'zbek kashtado'zlarning san'atidan dalolat beradi. Masalan: Nurota, Buxoro, Samarqand Kashtachilik mahsulotlari yo'rma kandaxayol chok bilan, SHaxrisabzda yo'rma, iroqi, Toshkentda esa ko'proq bosma chok bilan tikilgan. O'zbek kashtado'zlari buyum bezaklarida amaliy san'atini boshqa turlarida andoza olganlar. Kashtado'zlarda o'simliksimon tasvirlar shox, gulband, guldastalar ko'p uchraydi.

Kashtada ishlatiladigan asosiy ish qurollari igna, ilmoqli igna, ilmoqli begiz, angushvona, chanbarak va boshqalar. Keng tarqalgan choklar kandaxayol, chinnixayol xomdo'zi, yo'rma, iroqi, popur, ilmoq, baxliya va boshqa choklar kiradi.

YOg'och o'ymakorligi o'zbek xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog'och buyumlarga chizib, kesib, o'yib ishlanadi. Badiiy san'atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo'lib, qadimiy sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Evropa va Osiyo mamlakatlarida yog'och o'ymakorligining rivojlanib o'ziga hos badiiy uslublari kelib chiqqan. SHu singari O'rta Osiyoda ham yog'och o'ymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarning uy ro'zg'or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo'llanilgan. Bu o'ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, deraza, ustunlar, har xil to'sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan.

YOg'och o'ymakorligining o'ziga hos turli uslub va usullari bor. Masalan, Marg'ilon yog'och o'ymakorligini chuqur zaminli yassi o'ymani qo'llab kelganlar. Qo'qon o'ymakorligi esa kalta bo'rtmali, yassi o'yma

ishlatganlar. Toshkentda esa naqsh bilan qonlangan yassi bo'rtmali, zaminsiz chizma yog'och o'ymakorligi keng tarqalgan. Hiva yog'och o'ymakorligi o'ymasining monumentalligi, yog'och tabiiy rangini saqlab qolishi bilan boshqalardan farqlanadi. Buxoro yog'och o'ymakorligi esa o'yma naqshning jozibadorligi, jimjima naqshlarni oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanishi bilan ajralib turadi.

Tosh va Suyak o'ymakorligi san'ati. Tosh o'ymakorligi xalq amaliy bezak san'atining noyob turlaridan biri. Bu san'at kishidan iste'dod va intilishdan tashqari mehnatsevarlik va g'oyatda zo'r sabr-toqat talab qiladi. Bu san'atni toshtaroshlik va sangtaroshlik deb ham yuritiladi. Tosh o'ymakorligi toshni o'yib, yo'nib, naqsh yoki biror tasvir ishlash kasbidir. Toshni o'yib ishlashning chiziqli o'yma, zanjira o'yma, panjarasimon o'yma va hajmli o'yma turlari bor. Tosh o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar o'rni, o'rtacha qattqlikdagi va qattiq toshlar ishlatiladi. YUmshoq toshlarga jipstosh, talkoxlorit, ohaktosh, o'rtacha qattqlikdagi toshlar oniks, porfir, ohakli marmar, marmar va qattiq toshlarga lazurit, amozon, atag, malaxit, jadent, nefrit, yashma va boshqalar kiradi. Bu toshlardan qozon, ko'za, lagan, piyola, haykalcha va haykallar tayyorlanadi. Ko'za, lagan, namoyn va boshqalarga o'yib o'simliksimon, geometrik ramziy naqshlar hamda syujetli rasmlar o'yib ishlanadi. Jumhuriyatimizdagi vodiy va tog'lar uzoq insoniyat taraqqiyotidagi o'tmishda moddiy madaniyatning o'chog'i hisoblangan.

Suyak o'ymakorligi. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati ichida suyak o'ymakorligi ham san'atning turlari kabi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Suyak o'ymakorligi O'zbekistonda san'atning eng yosh turidir. suyak o'ymakorligi Hindiston, YOqutiston, Afrika, Xitoy, umuman sharq mamlakatlarida yuksak darajada rivojlangan. Suyak o'ymakorligi juda qadimiy san'at, buni har xil arxeologik topilmalar tasdiqlaydi. O'rta Osiyoda suyak o'ymakorligi geografik sharoit tufayli rivojlanmagan. Ammo xalq amaliy san'atining boshqa turlarida (pichoqchilikda) qo'llanilgan. Bular

oddiy suyaklardan (qoramolning, echkining suyaklaridan) ishlangan.

Qo‘qon va Farg‘ona yog‘och o‘ymakorligi maktabi. Qo‘qon ustalari qoshiga, kursi, rasm va boshqalardan kalta bo‘rtmali yassi o‘ymani, kargori uslubda ishlatib kelib, arxitekturada eshik, ustunlarga yirik chuqur naqshlar o‘rnatib o‘zgacha maktab yaratdilar. Bu maktablar o‘ymalarning manumentliligi bilan farq qiladi.

Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi maktabi terak, yog‘och va bo‘k materiallaridan ko‘pincha foydalanadilar. Ustalar o‘yilgan relefning faqat yuziga to‘qroq rang berib keyin laklaydilar.

Marg‘ilon yog‘och o‘ymakorlik maktabi o‘ziga xos milliy ko‘rinishga ega bo‘lib o‘ymaning chuqur zaminli yassi qo‘llaydilar. Keyingi vaqtda Marg‘ilon ustalari binolarni yog‘och o‘ymakorligi bilan bezashda payiya ishlar qildilar.

O‘zbek xalq amaliy bezak san’atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir. Kandakorlik deganda metaldan yasalgan badiiy buyumlarga o‘yib yoki bo‘rtik qilib naqsh ishlash tushuniladi.

O‘rta Osiyo shaharlarida kandakorlik san’ati o‘zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin ikkichi o‘rinda turadi.

Kandakorlik san’ati ramziy ifodalarni yangi uslublari hamda g‘oyalarni tarqatish manbai bo‘lib xizmat qilgan. Maxaliy ustalar oltin, kumush, jez, mis va boshqa metallardan har xil buyumlar yasaganlar. Qadimgi va ilk o‘rta asr kandakorligi asosan tallangan kumush buyumlarda o‘z ifodasini topdi.

XI asrdan boshlab kandakorlik maxsulotlarini mis hamda II asr boshlaridan birinchi (maxsus mis topilmasi) to‘g‘nag‘ichlar Misr, O‘rta er dengizi, Mesopatamiya, Hindiston, O‘rta Osiyoda keng tarqalganligi aniqlangan. To‘g‘nag‘ichlarda kichik-kichik voqealar, xayvon va boshqa narsalar tasvirlangan. Jumladan Farg‘onada topilgan marosim qozoni 1 ming yillikning o‘rtalarida kandakorlik «xayvonot uslubi» rivoj topganligini isbotlaydi.

Toshkent kandakorlik san'ati shakllarining kattaligi, naqshlarning soddaligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Toshkent kandakorligida yangi xoshiya yo'llarda asosan o'simliksimon, «islami naqsh» (ilon izi) ishlatiladi. Toshkentlik kandakorlar san'at asarlarida tevarak atrofimizni o'rab turgan 7 narsalarni naqsh orqali aks ettiradilar.

Kulolchilik qora loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan SHarqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojni o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Kulolchilik hunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, buyum, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlanadigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan xar xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulxonda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma erlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar.

Kulolchilik charxi miloddan avvalgi uch ming yillikni boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

Xorazm kulolchilik san'atiga katta hissa qo'shgan ustalardan biri Raimberdi Matjanov-Xorazm badiiy kulolchilik maktabi O'zbekiston amaliy bezol san'atida alohida o'rin tutdi. Kulolchilik maktabi Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va boshqa shaxarlar kulolchilik maktabidan o'ziga xos yasash usuli, texnologiyasi, naqsh kompazitsiyasi, koloriti, dinamikligi bilan kishilarda alohida o'rin tutadi. Raimberdi Matjanov

Xorazmning qadimiy kulolchilik markazlaridan biri Madir qishlog'ida 1909 yili kulolchi oilasida dunyoga keldi. O'sha davrda Madir qishlog'ida o'n besh kulolchilik ustaxonasi bor edi. Matjon kulolning o'g'li Raimberdi o'z otasidan kulolchilik sir-asrorlarini o'rgana boshladi. U avval loydan har xil o'yinchoqlar shakillar yasaydigan bo'ldi, keyinchalik ixcham bodiya, koshinni o'rgandi.

Pichoqchilik san'ati deganda biz pichoq yasash kasbini tushunamiz. Pichoq bobolarimiz uchun qadimdan tirikchilik vositasi bo'lib xizmat qilgan. Hozirgi vaqtda pichoq yasash san'ati xalq amaliy san'ati qatorida e'zozlanib kelinayotir. Nodir pichoqlar yasashda o'zbek pichoqsoz ustalarining oldiga tushadigan usta kam topiladi. Pichoq yasash boshlang'ich paleolit davridayoq ma'lum bo'lgan. Temir davrida hunarmandchilik paydo bo'lgan va rivojlangan. Mis va bronzadan pichoq yasash bronza davriga kelib avj olgan. Temirning kashf etilishi pichoqchilik san'xati taraqqiyotida katta burilish bo'ldi. O'rta Osiyoda pichoqchilikning eng rivojlangan joyi arab mamlakatlari bo'lgan, Ispaniya va Italiyada esa tez o'sib rivojlanib ketgan

XVI asrda Germaniya, Angliya, Avstriya, Fransiyalarda pichoqchilikni kasb sifatida ta'qiqlab, pichoqni oshxonalarda ishlatishgan. XVII asr boshlarida pichoqning ochib yopiladigan, pakki, ustara va boshqa cho'ntakda saqlanadigan pakkilar yuzaga keldi. Arxeologik topilmalardan ma'lumki, O'rta Osiyo territoriyasida million yil avva 2000 yillikga oid pichoq namunalari topilgan. Bolalik tepa, Afrosiyob, Varaqsha devorlariga ishlangan rasmlardan ma'lum bo'ldiki, pichoq uy-ro'zg'ordan tashqari harbiy qurol sifatida ishlatilgan. VI-XII asrlarda pichoq yasash rivojlanib uni bezash texnologiyalari o'zgargan.

XV-XVII asrlarda yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xillari paydo bo'ldi. Buni Navoiy, Bobur asarlarida ishlangan miniatyuralardan ko'rish mumkin.

Keyinchalik pichoqchilikning o'ziga hos maktablari paydo bo'ldi.

Fargʻona vodiysi, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo qadimdan pichoqchilik markazlari boʻlib, ular oʻzining ishlash texnologiyasi, shakli, katta kichikligi va bezaklari bilan farq qilgan.

Oʻzbekiston Respublikasida 20 ga yaqin pichoqchilik markazlari boʻlib, ular yasash usuliga koʻra CHust (tus) pichogʻi, shaxrixon pichogʻi poytugʻ pichogʻi, qoʻqon pichogʻi, qorasuv pichogʻi kabilarga boʻlinadi.

Pichoq turlari. Oʻrta Osiyoda pichoq alohida ramziy maʼnoda, yaʼni barcha yozuvlardan saqlash maʼnosida masalan «dandon sopli pichoq» va «karkesonli pichoq»lar ilohiy hisoblangan.

Pichoq qadimdan ishlatib kelinayotgan asboblardan biri boʻlib, uni tosh, miss va bronzadan ishlangan. Pichoq va dastadan iborat. Pichoqlar tuzilishiga koʻra 3 xil boʻladi:

Toʻgʻri pichoq, qayqi pichoq, bodomga pichoq.

Toʻgʻri pichoq qadimdan ishlatib kelinayotgan qayqi pichoq - tigʻni uchi orqasiga ozgina qayrilgan. Uni qilichak pichoq, chaqmoqi pichoq deb ham yuritiladi.

Bodomcha pichoq - orqa qirrasi uchiga nisbatan 4-5 sm ichiga kamalak boʻlib kirgan.

Oʻrta siyamli pichoq - pichoq turlaridan biri.

Kezlik pichoq - bolalar uchun ishlangan. Nikohda beriladi.

Bola pichoq - bolalar uchun.

CHalabuzar – pichoqni tigʻi boʻgʻzidan qayrilib, dastasiga yopilgan boʻladi.

Mardona pichoq - kashtalar uchun ishlangan pichoq.

Sodda pichoq - uy-roʻzgʻorda ishlatiladigan pichoq.

Guldor pichoq - dastasiga naqshlar solingan.

CHilmixigulli pichoq - dastasiga chilmixlar qoqib guldor qilib yasalgan.

Rufta pichoq - tigʻining yuzi sidirgʻasiga charxlangan.

YOg‘och sopli pichoq - yog‘och sopli pichoq.

SHohdastali pichoq - shohdan dastasi.

Dandon sopli pichoq - pichoqning sopi filning tishi va suyagidan tayyorlangan.

O‘n uch sopli pichoq - pichoq dastasiga o‘n uch dona sadaf ko‘z solingan.

O‘n besh sopli pichoq - pichoq dastasiga o‘n besh dona gul solingan.

Pichoqning tuzilishi.

Pichoq 3 ta qismdan tig‘, dasta va qindan iborat.

Tig‘-pichoq tig‘i, kesadigan qismi.

Pichoq dastasi – suqma dasta, yorma hamda naqshinkor dasta.

qin – pichoq, qilich, hanjar va boshqa asboblarni solib qo‘yish uchun maxsus moslama.

Pichoqchilikda temi ryoki po‘latdan ishlatiladi. Bronza davrida bronza va misdan yasashgan. Temir kashf etilgandan so‘ng temir pichoq yasalgan.

Pichoqchilikda – do‘konda o‘choq, dam, sandon, bozg‘on, egov, bolg‘a va boshqa juda ko‘p asboblarni ishlaydi.

Tig‘ombir-tig‘ni yasashda qimchib ushlab turadi.

CHarx-har xil asboblarni o‘tkirlanadi.

Bigiz-gulbandini o‘yib gul solinadi.

Ko‘k qalam – bigizni bir turi.

Naqsh bigiz-naqsh qalamni bir turi.

Naqsh qalam-pichoq yuziga naqsh o‘yadi. Po‘latdan yasaladi.

Naycha qalam – uchi tirnoq shaklda naqsh o‘yadi.

Qayroq-qayrab, o‘tkirlaydi.

Bozgardon – jimjiloq yo‘g‘onligida, bir qarich uzunlikdagi temir.

Bozg‘on-katta og‘ir bolg‘a.

Sandon-po‘latdan yasalgan taglik.

Dam-forscha tin degani – havo qaynatib o‘tin yondiradigan asbob.

CHirmixiparma – Parma o‘yuvchi asbob.

Xolgulparma-parma, ko‘z parma.

Sadaf arra – kichkina arra.

Savat qalam – gul o‘rni o‘yladi.

Pichoqchilik ishi juda nozik ish bo‘lib ko‘p asbob uskuna ishlatiladi.

O‘zbek xalq amaliy san’atining turlari ichida zeb-ziynat san’ati bo‘lmish zargarlik alohida o‘rin egallaydi.

Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshli zargarlik buyumlari nihoyatda qadrlangan. CHunki ular inson uchun faqat bezak buyumlari bo‘lib qolmay, balki sog‘liq uchun, inson ruhiyati uchun ijobiy ta’sir etgan. Masalan, marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va iztirobni haydaydi, ko‘z qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og‘izda qo‘lansa hidlarni yo‘qotadi, oshqozondagi va jigardagi toshlarni maydalaydi, shamollash, bavosil va boshqalarni tuzatadi. Feruza esa uni qudratli tumor sifatida taqilgan, oshqozon hamda ko‘z kasalligiga shifobaxsh ta’sir etgan, ilon chaqqanda eng yaxshi davo hisoblangan. SHuning uchun qadimda kelinlar kiyimiga feruza taqishgan. Sadaf SHarqda ham, Evropada ham yuqori baholangan. Undan to‘g‘nag‘ich, baldoq, marjonlar ilma tugmalar yasalgan. Uni qadimda oshiqlar mahubasiga sovg‘a qilgan. U taqqan kishini ajin hamda sepkillardan asragan, zehnni ravshan qilgan, kishini bardam, ruxiyatini ko‘targan.

Xalsedondan o‘tmishda marjonlar, uzuk, to‘g‘nag‘ichlar, bilak-uzuk va boshqalar yasalib, u go‘yo odamlarni qahru-g‘azab, g‘amu-anduhdan asragan. O‘zbek zargarligi juda qadimiy tarixga ega. Unga ibtidoiy jamoa tuzimi davrida asos solingan. Arxeologik topilmalardan ma’lumki, zargarlik san’ati juda qadimiy san’at bo‘lgan. Eramizgacha bo‘lgan I asrdan boshlab eramizning VIII asrigacha Ayritom, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolgayon, Bolaliktepada chiroylik xaykallar, devor bezaklari orqali zargarlik san’ati rivojlanganligini ko‘rish mumkin.

Hozir respublikasizning Andijon, Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Xorazm, Buxoro va boshqa shaharlarda zargar ustalarimiz bugungi kunda yangi materiallar va shakllarni ishlatish bilan birga, zargarlarning eng yaxshi qadimiy an‘analari va boy tajribalaridan samarali foydalanib kelmoqdalar. Ular hozirgi avlod didiga mos nafis zargarlik buyumlarini ko‘plab ishlab chiqarib, haridorlarni yanada xushnud etmoqdalar.

Zargarlik buyumlari. Bezaklar. Ayollar libosining ko‘p qismini egallaydi. Ba’zi bir zeb-ziynatlar bir umr taqib yuriladi. Peshonaga taqiladigan tillaqosh, boliabro‘, barak, quloqqa zirak, boshga takdo‘zi, sangoq, oltin tumor, ko‘krak bezagiga munchog‘, zebigardon, tumorcha, gajak, burun bezagi, qo‘l bezagi, bilakuzuk, barmoq bezaklari va boshqalar.

Soch popuk – sochga taqadigan sochpopuk.

Bilakuzuk – oltin, kumush, misdan yasaladi.

Zebigardon – forsha-tojikcha bo‘yin bezagi.

Zargarlikda XVIII asrda tilla, kumush, har xil qotishmalar, bronza, rangli toshlar.

Eng ko‘p oltin – kumush ishlatiladi.

XIX asrda oltin ishlatish ko‘paydi.

Birinchi darajali toshlarga – olmos, sapfir, zumrad, yoqut, aleksandrit, shpinel, evklaz, oltin, platina, marvarid.

Ikkinchi darajali toshlarga – akvamarn, topaz, vorobevit, qizil turmalin, sirkon.

Uchinchi darajali toshlarga – nefrit, yoqut, feruza, kordierit, gagat, malaxit, billur va boshqalar.

Zargarlikda loyli o‘choq, charm, o‘ta chidamli loylar, payvand, naycha, temir qisqichlar, bolg‘achalar, metall taxta, paryur, zubila, keskich asboblari, charxtosh, qoliplar, qaychilar ishlatiladi.

Punson – zargarlikda ishlatiladigan metalga naqsh ishlanadi.

Kirya-temir yoki po‘latdan yasaladi.

Zargarlik buyumlarini ishlash juda nozik ish. Kumush, tilla, mis, qalay, jez asosiy xomashyo.

Zardo‘zlik – hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do‘zi (tikmoq) so‘zini anglatadi. Zardo‘zlik san‘ati uzoq tarixga ega. Zardo‘zlikning vatani Vabylon bo‘lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgan, zar, ipak va jun qo‘shilib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Vizantiyada zardo‘zi kkiyim-kechaklarni faqat imperator a‘yonari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilish tufayli zardo‘zlik san‘ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo‘zlik san‘ati rivojlanganligiga XV-XVII asrda ishlangan zardo‘zlik namunalari misol bo‘la oladi. Vizantiyadan qadimgi Rusga ham zardo‘zlik san‘ati kirib keldi. Kichik Osiyo doirasida zardo‘zlik XIII va XV asrlarda ham rivojlandi. Hullas Vizantiya qaerga ta‘sirini o‘tkazgan bo‘lsa o‘sha erda zardo‘zlik rivojlangan. O‘rta Osiyoda zardo‘zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san‘ati turlaridan biridir. Arxiologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma‘lumki, O‘rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan I-II asrlarda zarbop kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan.

Xalq amaliy bezak san‘atining keng tarqalgan turi bo‘lib, ko‘p asirlik milliy an‘ana va uzoq tarixga ega. Gilam to‘qish badiiy hunarga kiradi. U qadimdan ayollar orasida keng tarqalgan hunar sifatida mashhurdir. Gilam to‘qish san‘ati ayniqsa chorvachilik bilan shug‘ullanadigan ko‘chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Gilam qadim zamonlardan beri xona ichini bezatish, issiq saqlash, tovushni kamaytirish uchun xizmat qiladi. gilam asosan polga yoki bo‘yra ustiga to‘shaladi, xonani bezatish uchun devorga osiladi va o‘tov ichiga o‘raladi. Bu san‘at juda qadim zamonlardan beri rivojlanganligini yozma tarixiy manbalar va arxiologik topilmalar isbotlab beradi. Arxeologik topilmalar natijasida Xorazmda miloddan avvalgi 1-ming yillikka mansub gilamlar topilganligi tasdiqlandi. Qadimda Ussuri, Bobil,

Midiyada keyinroq esa Eron, Xindiston, Turkiyada to‘qilgan rangli gilamlar mashxur bo‘lgan.

O‘zbekistonda gilam to‘qish maktabi asosan ikki – Samarqand va Andijon gilamlari o‘zining chidamliligi, pishiqligi, aniq qizil-ko‘k, koloridi bilan farq qiladi. Farg‘ona Qoraqalpoq gilamlari asosan ikki xil, ya’ni qizil va to‘q ko‘k gammada to‘qiladi. o‘zbek gilamlarining chetiga ruta, o‘rtasiga turunj yoki doira naqsh ishlanadi. Samarqand gilamdo‘zlik maktabiga Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi gilam to‘quvchilar kiradi. Buxoro gilamlari o‘zining rang-barangligi kattaligi, uzun patligi va chiroyli naqshlari bilan ajralib turadi. Samarqand gilamlari qisqa patli, markazida turunj chetiga alohida-alohida naqshlar ishlanadi. qalqon deb nomlangan turunj naqshi juda ko‘p ishlanadi. Gilamlar xoshiyador estetik jixatdan chiroyli ishlangan bo‘ladi.

Ko‘pgina mamlakatlarda qadimdan to‘qib kelinayotgan gilamlar yaxshi rivojlangan. Masalan, Fransiya, Eron, Xitoy, Xindiston, Afg‘oniston va boshqa mamlakatlarda. Eng yaxshi gilamlar Dog‘iston, Turkmaniston, Gruziya, Ozarbayjonda va Armanistonda to‘qiladi. gilamning to‘qima, tikma, va bosma hillari bor.

To‘qima gilamda – gilamning guli to‘qiladi. o‘zbekistonda patli va patsiz (polos) gilamlar to‘qiladi.

Tikma gilam – tayyor buyumga guli tikiladigan gilam.

Bosma gilam – guli bo‘yab bosiladigan gilam.

Hiva, Andijon, Urgut, Qarshi va boshqa joylarda to‘qima gilamlar tayyorlanadi.

Qadimdan savat to‘qishda tut, terak, tol, turang‘il, yulg‘ich novdalari bug‘doypoya, qamish va boshqa materiallarni ishlatib kelganlar. Ayniqsa qoratalning novdasidan to‘qilgan savatlar juda chidamli hisoblangan. Savatlar terak, majnuntol, turong‘il, ligustrum va tolning bir yoshli tekis novdalaridan to‘qilgan.

Bo'yrachilik – bo'yra to'qish kasbi, tojikcha bo'yrobofi O'rta Osiyoda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turi. Bo'yra bu yaxshi pishigan qamishni pachoqlab, po'stini tozalab to'qilgan buyum. Uni gilam, namat (kigiz), polos tagidan solishgan. Bo'yra to'qiydigan mutaxassislari bo'yrachilar deb atalgan. Bo'yra gilam, namat (kigiz), poloslarni tuproq va zaxdan saqlagan, undan to'y marosimlarida, mevalarni qishda saqlashda, quritishda foydalanilgan. U qop o'rnida ham ishlatilgan, derazalarni qorong'ilatishda parda sifatida, musulmonlar odatiga ko'ra dafn marosimida ham bo'yradan foydalanilgan. qadimda qurilishda bo'yura juda ko'p ishlatilgan. Imorat tomini yopishda (lomboz bosishda) ham ishlatilgan. Buxoroda X asrda qamishdan juda keng foydalanilgan. Qadimda bo'yra mahallalar (tojikcha bo'yrobofon deb yuritilgan) bo'lgan. Bunday mahallalardagi har bir oila bo'yra to'qish bilan shug'ullangan. Va bo'yralarni bozorlarda maxsus rastalarda sotilgan. Bo'yralarni turli xil nomlar bilan yuritiladi. Qurilishda uy tomini yopishda «bordon» ishlatiladi.

O'zbek xalqi o'zining qadimiy va boy madaniyati bilan jahonga mashxurdir. O'zbekistonning qadimiy yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzeydir. Samarqand, Buxoro, Hiva, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlardagi har bir arxitektura yodgorligi bir buyuk asar, nodir qo'lyozmalar, xalq amaliy san'ati namunalari bir vaqtlar o'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. CHunonchi otobobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklarini ularning rang-barangligi, giometrik va o'simliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o'z orzu umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izxor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'atining ayrim turlari, ularning o'ziga xos tomonlar, xaqiqiy o'zbekcha nomlari, ishlash texnologiyalari va ularni yaratgan ustalarning nomlari asta-sekin unitilib ketish arafasida. SHuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan

tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'at ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

## **1.2. Mustaqillik sharoitida milliy hunarmandchilikning rivojlanishi**

Milliy hunarmandchilikning turli sohalarini o'rganishda yoshlar quyidagi bilimlarga ega bo'ladilar: ma'lum kasb-hunar sohalarining tarixi, kelib chiqishi, etnik ildizlari, xalq ustalari va ularning ijodiy faoliyatlari; hunarmandchilikning shakl va jahon madaniyatida tutgan o'rni, sohalarining tarqalishi, jug'rofiyasi, turlari, ularning yo'nalishlari; Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Termiz, Nukus, Andijon, Fargona, Namangan, Rishton, Urgut hunarmandchilik maktablari ustalari va ularning o'ziga xos yo'llari; tarixiy me'morchilik obidalari, ularning qurilishi, saqlash va ta'mirlash; mahalliy mehnat va xom ashyolarining, zahiralarining manbalari, turlari, tarqalishi, ularning hunarmandchilik markazlarining shakllanishiga va rivojlanishiga ta'siri, hunarmandlar sulolalari, risolalari, xalq amaliy va tasviriy san'ati hamda hunarmandchilikning o'zaro bog'liqligi va aloqasi va boshqalar.

Milliy hunarmandchilik asoslarini egallashda yoshlar quyidagi amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar: turli xildagi materiallarni tanlash va ularga ishlov berish; hunarmandchilik asboblari, moslamalari bilan ishlash; ma'lum sohalarda foydalaniladigan elektr va mexanizatsiyalashtirilgan qurilmalar, moslamalar va uskunalar bilan ishlash; buyumlarni-hunarmandchilik asarlarini asrash, ta'mirlash va umrini uzaytirish; yul-yo'riqli, operatsiyali, texnologik va ishlab chiqarish me'yoriy xujjatlar bilan ishlash; jarayonlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tayyorlangan buyumlarni va asarlarni iste'molga chiqarish va boshqalar.

Milliy hunarmandchilikning esa bevosita xalq xo'jaligi (mahalliy) tarmoqlarga bog'lik bo'lmagan holda o'quvchilarga turli umummehnat,

maxsus ko'nikmalarni o'rgatishda didaktik imkoniyatlari behisobdir.

Xalq hunarmandchiligi sohalarini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan mashg'ulotlarning moddiy, xom ashyo, materiallar bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yishda deyarli barcha maktablarda mahalliy imkoniyatlar mavjuddir. Moddiy ta'minot bo'yicha davlat yo'nalishi kuchsizlangan hozirgi davrda ham, keyingi bosqichlarda ham mahalliy xom ashyo ta'minotini o'quvchilar va o'qituvchilar o'z kuchlari bilan bevosita amalga oshirishlari mumkin. Xalq hunarmandchiligining mehnat va kasb-hunar ta'limida muntazam o'rganilishi o'g'il va qiz bolalar mehnatini, qishloq va shahar maktablarida muqobil mashg'ulotlarning tashkil etilishini va qolaversa, o'quvchilarning ta'lim muassasasini bitirganlaridan so'ng doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishlarini ma'lum tartibga soladi. Xalq hunarmandchiligi sohalarini o'rganish va o'rgatish, quruq mehnat yumushlarini ketma-ket bajaradigan "ishchi-robotlar", "ishchi-mexanizmlar" tayyorlashni qisman bo'lsa-da inkor etadi va ijodiy fikrlaydigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, yuqori darajada insoniylik fazilatlariga ega bo'lgan, muomalali, odob-axloqli insonlarni tarbiyalashda imkoniyatlari juda yuqoridir.

Respublikamizda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirish borasida yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida hunarmandchilik faoliyati kundan kunga rivojlanib, ularning mahsulotlari eksportga chiqarilmokda.

Hunarmandchilik faoliyati – yuridik shaxs bo'lmagan jismoniy shaxslarning hunarmandchilik buyumlari yoki tovarlari (ishlari, xizmatlari)ni ishlab chiqarish bo'yicha faoliyatidir. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar tayyorlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun ko'pi bilan besh nafar shogirdni ularga tegishli haq to'lagan holda jalb etishga haqlidir.

Mamlakatimizda milliy hunarmandlarga soliq imtiyozi dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-1741-sonli Farmoniga asosan tadbiriq etilgan bo‘lib, keyinchalik ushbu imtiyozning amal qilish muddati Prezidentimizning tegishli Farmonlariga asosan uzaytirib kelindi<sup>3</sup>.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 30 martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atini rivojlantirishni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi PF-4210-sonli farmonida uy sharoitida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati buyumlarini ishlab chiqarish bo‘yicha «Hunarmand» uyushmasi a‘zolari - yakka tartibdagi tadbirkorlarga belgilangan qat’iy soliqni to‘lash yuzasidan soliq imtiyozining amal qilish muddati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda PF-4399-sonli farmoniga asosan 2014 yilning 1 yanvariga qadar uzaytirildi.

SHu o‘rinda ta’kidlash joizki, mazkur imtiyoz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3588-sonli farmoni bilan tasdiqlangan hunarmandchilikning asosiy quyidagi 25 ta faoliyat turi ro‘yxati asosida qo‘llaniladi.

1. Ganch o‘ymakorligi;
2. YOg‘och o‘ymakorligi;
3. Suyak o‘ymakorligi;
4. Tosh o‘ymakorligi;
5. YOg‘ochdan xalq hunarmandchiligi buyumlari yasash;
6. Metall va tunukadan buyumlar yasash;

---

<sup>3</sup> <http://sharh.uz/jamiyat/item/358-hunarmandchilik-faoliyati-uchun-imtiyozlar>

7. Qilich, xanjar va pichoq yasash;
8. Zarb, o‘yma tasvir (chekanka) usulda yasalgan buyumlar;
9. CHinni (farfor), sopol va ganchdan buyumlar yasash;
10. Qimmatbaho metallardan zargarlik buyumlari yasash;
11. Qo‘lda gilam to‘qish;
12. Qo‘lda gazlama va to‘qma buyumlar to‘qish;
13. SHisha buyumlar tayyorlash;
14. Zardo‘zlik buyumlari tikish;
15. Kashtachilik, kashtado‘zlik;
16. Matoga gul bosish va chokli buyumlar tikish;
17. Milliy xalat (chopon) va bosh kiyimlar tayyorlash;
18. Musiqa asboblari yasash;
19. Miniatyurali, rasmlı (tasvirli), ornamentli (naqshli) va sirli bezaklar berish;
20. Hajmli va figurali (shakldor) qoliplı (andozali) quyma buyumlar yasash;
21. Kichik haykalchalar yasash;
22. O‘yinchoqlar yasash;
23. Novdalardan buyumlar to‘qish;
24. Teridan buyumlar va oyoq kiyimlari tikish;
25. Sovg‘a (suvenir) esdalik buyumlari tayyorlash;

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinib, unda oilaviy korxonalar o‘zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum bo‘yicha yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod qilinishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta’minlash, yoshlarni bozor iqtisodiyoti munosabatlarida faol ishtirok etishga tayyorlash pedagogika fani oldida turgan muhim

vazifalaridan biri hisoblanadi. Respublikamizni jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashi, rivojlangan davlatlar bilan tenglik tamoyili asosida o‘zaro hamkorlikka erishishida, yoshlarning iqtisodiy bilimlarni puxta egallashlari hamda hunarmandchilik negizida tadbirkorlik faoliyatini samarali yo‘lga qo‘ya olishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyot har qanday jamiyat hayotining asosi va hal qiluvchi ahamiyatga ega ustuvor soha bo‘lib, uning samarali rivoji o‘z navbatida ijtimoiy munosabatlar mazmunining boyishi, ishlab chiqarishga nisbatan ilg‘or qarashlarning shakllanishi, shuningdek, kishilik faoliyati ko‘lamining yanada kengayishini ta‘minlaydi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bosqichma-bosqich bozor ishlab chiqarishiga asoslangan munosabatlarni qaror toptirish O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etildi. SHu bilan birga bozor munosabatining ma‘naviy-ahloqiy g‘oyalar hamda milliy qadriyatlarga asoslanishiga alohida e‘tibor qaratildi. Binobarin, bozor ishlab chiqarishining o‘zaro raqobatga aylanishi – uning ma‘naviy-ahloqiy negizlarini mustahkamlash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqadi.

Birgina ishlab chiqarishda bozor munosabatiga asoslanishning o‘zi jamiyat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanishini kafolatlay olmaydi va bu o‘rinda bir qator omillarning mavjudligi talab qilinadi. Ana shunday omillardan biri – bu jamiyat a‘zolarining ishlab chiqarishga bo‘lgan munosabatlarini keskin o‘zgartirish, ularni boqimandalik kayfiyatidan halos qilish va iqtisodiy bilimlarni keng targ‘ib etish orqali ularda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish hisoblanadi. YOshlarning iqtisodiy ong va faoliyat ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida oila va ta‘lim muassasalarida ana shu yo‘nalishda tashkil etiluvchi faoliyat o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Tadbirkorlik – kishilarning foyda olish maqsadida, jamiyatning

ma'naviy-ahloqiy me'yorlari, amaldagi qonunlari doirasida mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va mustaqil tashabbuskorlik faoliyati sanaladi. Ushbu tushuncha mustaqillik yillarida iste'molda keng qo'llanilib, kishilar ongida mustahkam o'rin egalladi. Mazkur holatni baholar ekan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarga e'tiborni qaratadi: "Tobora ko'proq kishilarimiz foydali tadbirkorlik sohasida tashabbus, omilkorlik, mahorat ko'rsatmoqdalar. Tobora ko'proq yoshlar musobaqa va raqobatga asoslangan erkin mehnatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarni va ishlab chiqarish mahoratini egallab olishga intilmoqdalar."<sup>4</sup>

"Tadbirkorlik" tushunchasini yoshlar ongiga singdirish, ularda tadbirkorlikka oid tushunchalarni shakllantirish hamda ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatining samarali tashkil etilishiga erishish ko'p bosqichli va murakkab jarayondir. Binobarin, tadbirkor sotib foyda olishi mumkin bo'lgan, bozor talab qilgan mahsulotni ishlab chiqara olishi, xizmat turini tanlay bilishi, o'z mahsuloti yoki xizmatini taklif etishi, shuningdek, ularni sota olishi lozim. Mazkur jarayonning muvaffaqiyatli tashkil etilishi esa tadbirkorning faoliyat ko'rsatish sohasini tanlash, shaxsiy tashabbus ko'rsatish, ishning natijalari uchun javobgarlikni his etish, o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulot yoki ko'rsatayotgan xizmatga, talabning o'zgarishiga tez moslashish kabi sifatlarga ega bo'lishlikni taqozo etadi. YOshlarning bu kabi sifatlarga ega bo'lishlari ularning tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ruhan tayyor ekanliklarini ko'rsatadi.

Garchi "**tadbirkor**" atamasi bozor munosabatlarining muhim tayanch tushunchasi sifatida qo'llanilayotgan bo'lsa-da, aytish mumkinki, uning etimologik rivojlanishi kishilik faoliyatining muhim ko'rinishi bo'lgan hunarmandchilikning shakllanishi bilan bog'liq. Hunarmandchilik SHarq

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent, O'zbekiston, 1997. – 147 b.

xalqlari turmush tarzida o'ziga xos o'rin tutadi hamda oila a'zolarining barchasini muayyan ishlab chiqarish faoliyatiga jalb eta olish xususiyatiga ko'ra muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. SHu bilan birga hunarmandchilik oila daromadini shakllantirish va jamg'arma orttirish imkoniyatini beruvchi faoliyat turi ekanligiga ko'ra tadbirkorlik bilan o'zaro uyg'unlik hosil qiladi.

“Ustoz-shogird” an'anasi o'smirlar bilan bevosita ishlash, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, mavjud iqtidorlarining yanada rivojlantirilishi uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan yanada ahamiyatlidir. Bu kabi holatlar o'smirlarni nafaqat tadbirkorlik ko'nikmalarini, balki mehnat va ishlab chiqarish faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish, o'zgarar mehnatini qadrlash, halol mehnat qilish, mehnat samaradorligidan g'ururlanish kabi ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

## **BIRINCHI BOB YUZASIDAN XULOSALAR**

Hunarmandchilikning turli sohalarini o'rganishda yoshlar quyidagi bilimlarga ega bo'ladilar: ma'lum kasb-hunar sohalarining tarixi, kelib chiqishi, etnik ildizlari, xalq ustalari va ularning ijodiy faoliyatlari; hunarmandchilikning shakl va jahon madaniyatida tutgan o'rni, sohalarining tarqalishi, jug'rofiyasi, turlari, ularning yo'nalishlari; Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Termiz, Nukus, Andijon, Fargona, Namangan, Rishton, Urgut hunarmandchilik maktablari ustalari va ularning o'ziga xos yo'llari; tarixiy me'morchilik obidalari, ularning qurilishi, saqlash va ta'mirlash; mahalliy mehnat va xom ashyolarining, zahiralarining manbalari, turlari, tarqalishi, ularning hunarmandchilik markazlarining shakllanishiga va rivojlanishiga ta'siri, hunarmandlar sulolalari, risolalari, xalq amaliy va tasviriy san'ati hamda hunarmandchilikning o'zaro bog'liqligi va aloqasi va boshqalar.

Hunarmandchilik asoslarini egallashda yoshlar quyidagi amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar: turli xildagi materiallarni tanlash va ularga ishlov berish; hunarmandchilik asboblari, moslamalari bilan ishlash; ma'lum sohalarda foydalaniladigan elektr va mexanizatsiyalashtirilgan qurilmalar, moslamalar va uskunalar bilan ishlash; buyumlarni-hunarmandchilik asarlarini asrash, ta'mirlash va umrini uzaytirish; yul-yo'riqli, operatsiyali, texnologik va ishlab chiqarish me'yoriy xujjatlar bilan ishlash; jarayonlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tayyorlangan buyumlarni va asarlarni iste'molga chiqarish va boshqalar.

“Ustoz-shogird” an'anasi o'smirlar bilan bevosita ishlash, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, mavjud iqtidorlarining rivojlantirilishi uchun shart-sharoitni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o'smirlarni nafaqat tadbirkorlik ko'nikmalarini, balki mehnat faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish, o'zgarlar mehnatini qadrlash, halol mehnat qilish kabi ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

## **2 BOB. HUNARMANDCHILIK MAKTABLARIDA YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISH TAJRIBALARI**

### **2.1. Milliy hunarmandchilik maktablari negizida yoshlarni hunarmandchilik tadbirkorligiga yo‘naltirish**

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqimiz o‘zining qadimiy milliy hunarmandchilik an‘analarini tiklash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ayni chog‘da hunarmandchilik ishlab chiqarishini texnik jihatdan ta‘minlashni o‘stirish, hunarmandlarni kasbiy qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni xom ashyo bilan ta‘minlashni tartibga solish, hunarmandchilik mahsulotlari sifatini bozor talabiga muvofiq oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Hunarmandchilik faoliyatini qonunchilik jihatidan tartibga solish davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini, jumladan, hunarmandchilik tadbirkorligining me‘yoriy-huquqiy bazasi shakllanib borayotgan o‘tish davri iqtisodiyoti uchun bu, ayniqsa, muhimdir.

Kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalaridan farqli o‘laroq, hunarmandchilik korxonalarini tashkil etishning quyidagi umumiy tavsifiy belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- muayyan tarmoqqa mansublik;
- mulk va boshqaruvning bir shaxsda amaliy birikishi;
- yuridik jihatdan erkinlik;
- mahsulot sotish bozoridagi hissaning katta emasligi;
- faoliyatning ijodiy tavsifi;
- milliy an‘analarga asoslanganlik;
- asosan mahalliy bozorga xizmat qilish;
- boshqaruvning rivojlangan ierarxik tarkibining yo‘qligi;

- tarmoqda hukmron mavqega ega bo‘lmaslik;
- davlat yordamining mavjudligi.

Hunarmandchilik sub’ektlari turli ko‘rinishdagi kichik korxonalar va xususiy korxonalar shaklida tashkil etilishi yoki ular yuridik shaxs tuzmasdan yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lishlari mumkin. YA’ni, hunarmandchilik – kichik tadbirkorlik sub’ektlarining bir qismi bo‘lib, ularga yakka buyurtma bo‘yicha kichik hajmda mehnat maxsulotini tayyorlash yoki xizmat ko‘rsatish xos bo‘lib, bunda qo‘l mehnatining ulushi katta bo‘ladi hamda hunarmandlar o‘zlarining alohida bilim, ko‘nikma va mahoratlaridan ijodiy foydalanadilar. Odatda, hunarmandchilik korxonasi ichida mehnat funksional va ishlab chiqarish jihatidan taqsimlanmaydi va ishlab chiqarish vositalariga hunarmand-ustaning mulkchiligi asosida amalga oshiriladi. SHuningdek, mehnat jarayonida hunarmand-usta shaxsan ishtirok etadi.

Hunarmandchilik tadbirkorligini rivojlantirish har qanday mamlakat uchun muhim, chunki bu soha aholini ish bilan band etish bilan birga ularning turmush farovonligini oshirishga, o‘zlaridagi mavjud qobiliyatni yuzaga chiqarishga, shuningdek, asriy milliy urf- odat va qadriyatlarni avloddan-avlodga o‘tishiga yordam beradi.

YOsh davrlari ichida o‘smirlik davri murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichiga ega davr hisoblanadi. Bu davrda o‘smirda ruhiy, ma’naviy, anatomik-fiziologik o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi. Oilada o‘smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda uning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, o‘smirlar o‘zlarining kelajakdagi hayot faoliyatlarini o‘z orzularida loyihalashtiradilar. Ular o‘zlari mustaqil ish yuritishni istaydilar, ularning ko‘z oldida taniqli kasb egalari gavdalanadi. Bu mamlakatimiz hayotidagi keng va chuqur hodisalar, ayniqsa, bugungi kundagi tadbirkorlik faoliyatlari bilan ham bog‘liqdir.

O‘smir shaxsiy taraqqiyotida:

- xatti-harakatlarni baholash va dunyoqarashning tarkib topishi;
- o‘z-o‘zini anglashi va “kattalik” hissining paydo bo‘lishi;
- odob, farosat bilan ish tutish muhim ahamiyatga ega.

O‘smir oilada ota-onalari qatorida turib mehnat qilishi va qilayotgan ishining natijasidan quvonishi, g‘ururlanish hissi evaziga o‘z «men»i to‘g‘risidagi tasavvurlari ijobiy, o‘z-o‘ziga bahosi ob‘ektiv va adolatli bo‘lishi ta‘minlanadi, o‘zining nimalarga qodir ekanligini aniq tasavvur qila oladi. Xalq hunarmandchiligi maktablari tajribalari asosida yoshlarni kasbga tayyorlashda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

1. **O‘smir qobiliyatini oldindan baholash.** O‘smirning muayyan faoliyat turini qay darajada o‘zlashtira olishini oldindan aniqlash zarur.

2. **O‘smirning mehnatini uning kuchiga yarasha taqsimlash.** Me‘yordan ortiq talab uning toliqishi, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik hissining ortishi, ishdan bo‘yin tovlashiga olib keladi.

3. **Iste‘dodni rag‘batlantirish.** O‘smirning xatti-harakatiga ustaning munosabati – mayl va qiziqishlarini munosib baholash, ularga dalda berish, rag‘batlantirish o‘smirlarda muayyan faoliyatga qiziqishni orttiradi.

4. **Talabchanlik.** O‘smirning muayyan harakatni bajarishi davomida ishni sinchkovlik bilan puxta, vijdonan bajarishi, asbob-uskunalar, mehnat qurollariga ehtiyotkor, xom ashyoga nisbatan tejamkor bo‘lishni talab etishi lozim.

O‘smirlarning tadbirkorlik faoliyatida:

- ruhiyatidagi tetiklik;
- o‘z mehnati natijasidan zavqlanish;
- ko‘proq foyda ko‘rishga intilish;
- bozor qonun-qoidalarini tushunish;
- “tadbirkor” bo‘lishga intilishi va g‘urulanish kabilar alohida

ahamiyatga ega.

O‘smirlarni hunarmandchilik negizida tadbirkorlik faoliyatiga

tayyorlashning ob'ektiv va sub'ektiv omillari:

a) ob'ektiv omillar: ustaxona, hunarmandchilik asbob-uskunolari hamda faoliyat jarayonini xom ashyo bilan ta'minlash imkoniyati, o'smirlarni hunar o'rganishga yo'naltirish va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar bilan ta'minlanganligi;

b) sub'ektiv omillar: o'smirlarning hunar o'rganish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish borasidagi xohish-istaklari, qiziqishlari va ehtiyojlari darajasi, oila a'zolari (shu jumladan, ota-onalar va o'smirlar) o'rtasida o'zaro psixologik birlikning qaror topganligi; maqsadlar yagonaligi hamda mavjud muammolarning birgalikda hal etilishi, ota-onalar va katta yoshli oila a'zolarining o'smirlarga namuna ko'rsatishlari.

Tajriba-sinov jarayonida belgilab olingan vazifalarni hal qilishda quyidagilarga amal qilindi:

1. Tajriba-sinov ishlarini boshlashdan oldin "Hunarmand"lar uyushmasi faoliyati bilan tanishish va ularning tajribalarini o'rganish.

2. O'smirlarni tadbirkor qilib tarbiyalashdagi imkoniyatlarini aniqlash.

3. O'smirlarni mehnatga ruhiy tayyorlik darajasi, qiziqishlarini aniqlash.

4. Tajriba-sinov jarayonida qo'lga kiritilgan natijalarni umumlashtirish va o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

O'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aniqlandi:

1. O'smirlarning tadbirkorlik haqidagi tushunchalari va egallagan bilimlari. O'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda usta-hunarmandlarning tutgan o'rni.

2. O'smirlarni hunarmandchilik tadbirkorligi faoliyatiga tayyorlash uchun yaratilgan shart-sharoitlar.

3. O'smirlarning hunarmandchilik odobi haqidagi tushunchalari.

4. O‘smirlarda tadbirkorlik mayllarning namoyon bo‘lishi.

Ma‘lumki, hunarmand-tadbirkor bo‘lish uchun ko‘zlangan maqsad aniq bo‘lishi kerak. Maqsadni aniq qo‘ya olish uchun esa, o‘smirlar ruhiy, ma‘naviy-ahloqiy jihatdan to‘g‘ri shakllangan bo‘lishlari lozim.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda quyidagi **mezonlar** hisobga olindi:

1. O‘smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonida samaradorlikka erishish maqsadida usta-murabbiylar uchun metodik ta‘minotni yaratish.

2. O‘smirlarni hunar o‘rganishga yo‘naltirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish bo‘yicha xohish-istak va mayllarini aniqlash maqsadida maktab amaliyotchi-psixologlari va ota-onalar ishtirokida tashxis tizimini shakllantirish.

3. Hunarmandchilik borasidagi xorijiy mamlakatlar va mintaqada erishilayotgan yutuqlar bilan oilalarni muntazam tanishtirib borish uchun umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari va oilalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash.

4. Xalq hunarmandchiligi faoliyatining tarbiyaviy ta‘siridan samarali foydalanish maqsadida ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish.

5. Joylardagi “Ustoz-shogird” maktablarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish.

O‘smirlarni hunarmandchilik tadbirkorligi faoliyatiga tayyorlashda natijasida ularda quyidagi sifatlar tapkib topdi:

- 1) oila ravnaqi uchun ko‘proq daromad keltirish, boylik to‘plash;
- 2) ustozlar tajribasidan unumli foydalangan holda mustaqil faoliyat ko‘rsatishga intilish;
- 3) faoliyat jarayonida erkin, ijodkor, tashabbuskor bo‘lish;
- 4) tadbirkor sifatida o‘z xo‘jaligini mustaqil boshqarish kabilar.

O'smirlarni xalq hunarmandchiligi negizida tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash ehtiyojidan kelib chiqqan holda ular kelajakda egallashi lozim bo'lgan ko'nikmalarning tavsifnomasini ishlab chiqishga e'tibor qaratildi. Jumladan:

**Tashabbuskorlik** – tadbirkorning yangi g'oyalarga asoslangan holda faoliyat ko'rsatishi, faoliyat mahsulining oilasi va jamiyat uchun foydaliligini ta'minlash.

**Tavakkalchilik** – tadbirkorning qo'shimcha foyda olish maqsadidagi harakati, ayni vaqtda zarar ko'rish ehtimoli borligini ham unutmaslik.

**Moslashuvchanlik** – tadbirkorning ishlab-chiqarish jarayonlari, shart-sharoitlar, ijtimoiy muhit hamda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga moslashishi.

**Sinchkovlik** – tadbirkor bozorning o'zgarib turuvchi narx-navolari, talab va takliflarni ilg'ay olishi.

**Ehtiyotkorlik** – tadbirkorning oilasi hamda mamlakat iqtisodiyotiga hech qanday zarar keltirmagan holda ish yuritishi.

**Yaratuvchanlik** – tadbirkor mahsulotning yangi turlarini yarata olishi, samarali usullarni o'ylab topishi, sarf-harajatlarni kamaytirish yo'llarini izlashi.

**Boshqaruvchanlik** – tadbirkorning maqsadga erishishida duch kelgan muammolarning sababi va echimlariga nisbatan rejali ish yuritishi, tashkil etishi va oqilona nazoratni amalga oshirishdan iboratdir.

**Ziyraklik** – mahsulotni yaratish va sotishda bozor iqtisodiyoti sharoitlari, talablariga monand, aholi ehtiyojlarini hisobga olib bilish.

Tajriba-sinov jarayonida quyidagi ish turlari, metod va vositalar ijobiy ahamiyat kasb etdi. Ular:

– suhbat, ma'ruza, o'yin, uchrashuv, oilaviy kengashlar, ko'rgazmalar, sayohatlar o'tkazish;

– pedagogik kuzatuv, anketa so'rovi, hikoya qilish, tanqidiy fikr va

qarorlar qabul qilish;

– hunarmandchilik, tadbirkorlikka oid qarorlar, me'yoriy hujjatlar, adabiyotlar, tadbirlar, oq fotiha berish marosimlari, radio-televideniya-dagi fermer, tadbirkorlar uchun eshittirishlar, mehnat uskunalari-ni takomillashtirish texnologiyasi kabilar.

## **2.2. Hunarmandchilik maktablari bilan bog'liq xorijiy tajribalar va yoshlarni kasbga tayyorlashdagi ahamiyati**

Mamlakatimizda hunarmandchilik tadbirkorligi qadimdan rivojlanib kelayotganiga qaramasdan, bu sohani yanada rivojlantirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va ulardan ijodiy foydalanish foydadan xoli bo'lmaydi. Bu borada hunarmandchilik o'ziga xos tarzda rivojlanayotgan, hunarmandchilikni tashkil etish va taraqqiy ettirish yuksak darajada tashkil etilgan Germaniya hunarmandchiligi to'g'risida to'xtalab o'tamiz.

Hunarmandchilik Germaniyada azaliy an'analariga ega iqtisodiyotning ancha qadimiy sohasi hisoblanadi. Xususan, ko'plab shaharlardagi hunarmandchilik gildiyalarining (o'rta asrlarda G'arbiy Evropada yirik savdogarlar yoki hunarmandlar birlashmasi) ulkan jomelari va san'atkorona bezalgan binolari bundan dalolat beradi. Ammo, bugun ham Germaniyada hunarmandchilik o'zining iqtisodiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Hunarmandchilik sohasida 2005 yilda 94 ta kasb, 600.000 taga yaqin mustaqil korxonalar mavjud bo'lib, 6 millionga yaqin kishi band bo'lgan. Bugunga kelib bu sohaga ofis axborot texnikasiga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis yoki bino tozalovchilar, qurilish havoza-lari montajchilari kabi kasblar kiritilgan.

Hunarmandchilik Germaniya iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligiga yana ikkita sabab mavjud. Birinchidan, bu erda ko'plab

mustaqil firmalar tuzish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, bo'lajak tadbirkorlar uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'taydi. Ikkinchidan, hunarmandchilik korxonalarini kasbga tayyorlash tizimida muhim rol o'ynaydi. Germaniyada bu korxonalarda yoshlarning deyarli 40 foizi kasbga ega bo'ladi, hozirgi paytda bu 632.000 ming kishini tashkil etadi.

Hunarmandchilik YAngi erlar (viloyatlar. Germaniya – federativ davlat. Uning viloyatlari keng huquqlarga ega. YAngi erlar - 1989 yil Germaniya birlashganda, uning tarkibiga kirgan SHarqiy Germaniyada joylashgan viloyatlar.) iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirishda alohida ahamiyat kasb etib, iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida o'zini namoyon etdi.

Germaniya hukumati kichik va o'rta korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash va mustahkamlash maqsadida ularni qo'llab-quvvatlamogda. Bu yordam o'z ichiga axborot tadbirlarini va malakani oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni, tadbirkorlik faoliyati masalalari bo'yicha maslahatlarni, ishlab chiqarishlararo o'quv markazlari doirasida kasbiy ta'lim va malakani oshirishga hamda bunday markazlarni jihozlashga imtiyozlar berilishini va yordam pullari ajratilishini qamrab oladi. Bundan tashqari, bu ish hunarmandchilik sohasida texnologiyalar va innovatsiyalar uzatilishiga ko'maklashadi<sup>5</sup>.

Federatsiya va erlar o'z ishini ochmoqchi bo'lganlarga ko'mak beradilar, buning uchun moliyaviy ko'makning turli-tuman dasturlari mavjud. 1996 yilning 1 yanvaridan boshlab kasbiy mahoratni oshirishda moliyaviy ko'mak to'g'risida Qonun (Ustalar to'g'risida qonun, deb ham ataladi) kuchga kirdi. Ushbu Qonun usta, texnik bo'lishga tayyorgarlik ko'rayotgan yoki shu kabi malakaga ega bo'lishni istagan mutaxassislariga davlat ko'magini olishga qonuniy huquq beradi, bu ko'mak qisman yordam

---

<sup>5</sup> <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/hunarmand.tadbirkorlik.rivojlantirish>

puli shaklida, qisman kredit shaklida beriladi. Bu xarajatlarni Federatsiya va erlar birgalikda qoplaydi. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining sifat darajasini, hunarmandchilik va butun iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini saqlab qolish uchun Hunarmandchilik to'g'risidagi nizomga muvofiq, faqat usta unvoni uchun imtihon topshirib, undan muvaffaqiyatli o'tgan kishigina hunarmandchilik bilan shug'ullanishi mumkin. Mohiyatan, hunarmandchilikka yaqin ayrim kasblar bilan maxsus imtihon topshirmasdan turib ham shug'ullanish mumkin. Imtihon paytida nafaqat tor ixtisoslik doirasida, balki ma'muriy-xo'jalik, huquqiy va pedagogik bilimlarni ham namoyon qilish kerak. Usta unvoniga imtihonni topshirish hamda Malaka to'g'risidagi tegishli guvohnomani olish shogirdlar tayyorlashga huquq beradi. 1998 yilning aprelida Hunarmandchilik to'g'risidagi nizomga kiritilgan o'zgarishlarning kuchga kirishi munosabati bilan u bilan bog'liq kasblar qayta ko'rib chiqildi, va ularning faoliyat sohasi esa ancha moslashuvchan bo'ldi. Bu esa, hunarmandchilik sohasini ancha mustahkamladi, maqsad – shu sohada kasbiy tayyorgarlikdan o'tish va bandlikni ta'minlash hamda o'z ishini ochishdan manfaatdorlikni oshirishdir. Malaka to'g'risidagi katta guvohnomaning mavjudligi hunarmandchilik sohasida o'z ishini ochish uchun asos bo'lib qolmoqda.

Germaniyada shahar hududidagi yoki qishloq okrugidagi bitta hunarmandchilik yo'nalishidagi korxonalar hunarmandlar sexiga birlashadilar. Bu sexlar, o'z navbatida, erlarning sex uyushmalariga kiradilar. Avvalo, kasbiy ta'lim va malakani oshirish sexlarning ixtiyoridadir. Ular, shuningdek, jamoa shartnomalarini tuzishi va o'z a'zolari uchun sex shifoxonalarini ta'sis etishlari mumkin.

Germaniyada Erlar bo'yicha, geografik tamoyilga ko'ra tashkil etilgan 60 dan ortiq hunarmandchilik palatalari mavjud bo'lib, ular o'z hududlaridagi hunarmandchilik korxonalari faoliyatini qo'llab-quvvatlaydilar hamda ularni huquqiy tomondan nazorat qilib turadilar. Hunarmandchilik palatalari

quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- ustalar va shogirdlarning ro‘yxatini tuzish;
- hunarmandchilik korxonalarini reestrini yuritish;
- huquqiy normalar va raqobat kurashi qoidalarini shakllantirish;
- hunarmandchilik mahsulotlarini ekspertiza qilish (sertifikatlashtirish, litsenziyalash va h.k.);
- umumiy iqtisodiy muammolarni hal etish, texnik maslahatlar berish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini hal etishda qatnashish;
- radio, televidenie va matbuotni jalb qilgan holda axborotlar bilan ta’minlash;
- hududlar bo‘yicha hunarmandlarni oqilona joylashtirish sxemasini ishlab chiqish, qurilish, yuklarni tashishni rejalashtirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- bojxona rasmiyatchiliklari bilan tanishtirish;
- kasbga o‘qitish dasturlarini ishlab chiqish.

Hunarmandchilik palatalari odatda, ma’muriy okrug hududida ish ko‘radilar, o‘z-o‘zini boshqaruv organi hisoblanadilar va barcha hunarmandlarning manfaatlarini ifodalaydilar. Sex birlashmalari (markaziy ixtisoslashgan uyushmalar) tashkiliy tuzilmasining cho‘qqisida Germaniya hunarmandchilik kasaba uyushmalarining Federal birlashmasi turadi. Hunarmandchilik palatalari Germaniya Hunarmandchilik palatalari birlashmasi tarkibiga kiradi. Germaniya hunarmandchilik markaziy uyushmasi hunarmandchilik palatalari va markaziy ixtisoslashgan uyushmalarning bosh birlashmasi hisoblanadi.

Germaniya tajribasining diqqatga sazovor tomoni shundaki, oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilari kichik biznes va hunarmandchilik korxonalarini xodimlari bilan muayyan vaqt davomida o‘rin almashadilar, ya’ni o‘qituvchilar kichik biznes va hunarmandchilik korxonalarida amaliyotni o‘rganadilar, kichik hunarmandchilik korxonalarining mutaxassis- xodimlari

esa oliy o‘quv yurtida talabalarga amaliyotdan saboq beradilar. Natijada nazariya va amaliyot teng rivojlanadi.

Mamlakatda hunarmandchilikni rivojlantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar o‘zining ijobiy natijasini berib kelmoqda.

YUqorida bayon etilgan hunarmandchilik tadbirkorligini rivojlantirish borasidagi Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlatning keng miqyosdagi har tomonlama qo‘llab-quvvatlash tizimisiz bu sohaning samarali amal qilishiga, o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etishiga erishib bo‘lmaydi.

Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Germaniya tajribasini o‘rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

- bozor munosabatlari rivojlanayotgan sharoitda milliy hunarmandchilikning samarali rivojlanishini davlatning ishtirokisiz ta‘minlab bo‘lmaydi;

- Germaniya tajribasi bunday qo‘llab-quvvatlash tashkiliy, moliyaviy, huquqiy, moddiy va ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni qamrab olishi zarurligini ko‘rsatdi;

- bu tadbirlar va ularni amalga oshirish vositalari mamlakatimizning milliy xususiyatlari, iqtisodiyotning holati, vujudga kelgan ijtimoiy-ruhiy vaziyat, iqtisodiy madaniyat darajasi va boshqa iqtisodiy muhit hamda sifat omillarini hisobga olgan holda belgilanishi zarur.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashning samarali chora-tadbirlari tizimi ishlab chiqilib, doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Ammo, hunarmandchilikni rivojlantirishning nemislar tajribasining ham diqqatga sazovor jihatlari mavjud. Ulardan foydalanish mamlakatimiz uchun ham faqatgina ijobiy natijalar berishi aniq.

Bizningcha, mamlakatimizda hunarmandchilik tadbirkorligini davlat

tomonidan qo‘llab-quvvatlash quyidagi tashkiliy-boshqaruv darajalari bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin:

- umumdavlat;
- mintaqaviy.

Umumdavlat miqyosida qo‘llab-quvvatlash hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar, qabul qilinayotgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rinadi. Bizningcha, bu borada eng yaxshi samara beradigan yo‘l – bu hunarmandchilikni mintaqalar bo‘yicha qo‘llab-quvvatlashdir. Bunda mintaqalarning tabiiy-iqlimiy sharoiti, hunarmandchilik ishlab chiqarishi uchun zaruriy xom ashyo manbalarning mavjudligiga qarab, ma‘lum bir hunar turlarini ustun darajada rivojlantirishga asosiy e‘tibor qaratiladi. Natijada mintaqalarda milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq ishlab chiqilgan chora-tadbirlar tizimi bevosita shu sohaning rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Mintaqalarda hunarmandchilik tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilash mumkin:

1. Hunarmandchilik tadbirkorligi uchun zarur infratuzilmani yaratish;
2. Hunarmandchilik tadbirkorligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash (masalan, Rishtonda va G‘ijduvonda kulolchilik, Buxoroda zardo‘zlik, Marg‘ilonda atlas to‘qish, Qashqadaryo va Xorazmda gilamdo‘zlik va h.k.);
3. Hunarmandchilik korxonalarini tashkil etish (hunarmand kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazlari, “Usta-shogird” maktablarini tashkil etish);
4. Hunarmand tadbirkorlarni kredit resurslari bilan ta‘minlash;
5. Hunarmand tadbirkorlarni rag‘batlantirishni kuchaytirish;
6. Mintaqalarda “Hunarmand” uyushmalari ishini takomillashtirish va ularning xizmat ko‘rsatish doirasini kengaytirish.

Bizningcha, mintaqalarda hunarmand tadbirkorlarni ichki va tashqi

bozor to'g'risidagi axborot bilan ta'minlaydigan firmalarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, hunarmandlar manfaatini himoya qiladigan tuman hokimiyati bo'limlarini tashkil etish zarur. Buning uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

1. Mintaqalarda mavjud tabiiy resurslarni aniqlash va resurslardan tayyorlanadigan mahsulotlarga bo'lgan talabni hisobga olish zarur;

2. Mintaqalarda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash zarur;

3. Yirik sanoat korxonalarini va kichik biznes sub'ektlari bilan hunarmandlar o'rtasida kasanachilikni yo'lga qo'yish kerak.

Germaniya tajribasidan ma'lumki, juda ko'p hunarmandchilik korxonalarini yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalarini bilan shartnoma asosida ularga mahsulot qismlarini tayyorlab berish va har xil xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Demak, respublikamizda ham hokimliklar milliy hunarmandchilik sub'ektlarini yirik korxonalar bilan kasanachilik asosida xizmat qilishni rivojlantirishni rag'batlantirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

## IKKINCI BOB YUZASIDAN XULOSALAR

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqimiz o‘zining qadimiy milliy hunarmandchilik an‘analarini tiklash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ayni chog‘da hunarmandchilik ishlab chiqarishini texnik jihatdan ta‘minlashni o‘stirish, hunarmandlarni kasbiy qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni xom ashyo bilan ta‘minlashni tartibga solish, hunarmandchilik mahsulotlari sifatini bozor talabiga muvofiq oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Hunarmandchilik faoliyatini qonunchilik jihatidan tartibga solish davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini, jumladan, hunarmandchilik tadbirkorligining me‘yoriy-huquqiy bazasi shakllanib borayotgan o‘tish davri iqtisodiyoti uchun bu, ayniqsa, muhimdir.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, milliy hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashning samarali chora-tadbirlari tizimi ishlab chiqilib, doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Ammo, hunarmandchilikni rivojlantirishning nemislar tajribasining ham diqqatga sazovor jihatlari mavjud. Ulardan foydalanish mamlakatimiz uchun ham faqatgina ijobiy natijalar berishi aniq.

O‘smir oilada ota-onalari qatorida turib mehnat qilishi va qilayotgan ishining natijasidan quvonishi, g‘ururlanish hissi evaziga o‘z «men»i to‘g‘risidagi tasavvurlari ijobiy, o‘z-o‘ziga bahosi ob‘ektiv va adolatli bo‘lishi ta‘minlanadi, o‘zining nimalarga qodir ekanligini aniq tasavvur qila oladi.

### **3 BOB. XALQ HUNARMANDCHILIK MAKTABLARI ASOSIDA YOSHLARNI KASB-HUNARGA O‘RGATISH METODIKASI VA UNING SAMARADORLIGI**

#### **3.1. Hunarmandchilik maktablarida yoshlarni kasbga tayyorlashning mazmuni**

Hunarmandchilik maktablarida hunarmandlar oilaviy sulolalarining boy tajribasi va “Ustoz-shogird” an’anasining shakllanganligi yoshlarni kasbga tayyorlash uchun zarur sharoitlarni yaratadi. YOshlarni kasbga tayyorlash orqali mehnat va ishlab chiqarish faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashish, o‘zgalar mehnatini qadrlash, halol mehnat qilish, mehnat samaradorligidan g‘ururlanish kabi ma’naviy-ahloqiy sifatlar ham tarbiyalanadi.

Xalq hunarmandchilik maktablari orqali hunarmandlar o‘z atroflaridagi yoshlarda: mehnatsevarlik va to‘g‘ri kasb tanlash; tadbirkorlikka qiziqish; tadbirkorlikka xos sifatlarni egallashga xohish uyg‘otadilar.

YOshlarni kasbga tayyorlash murakkab hamda muayyan shart-sharoitlar mavjudligini taqozo etuvchi jarayon sanaladi. Ushbu jarayonni pedagogik nuqtai nazardan to‘g‘ri tashkil etish bo‘lg‘usi yosh hunar egasi tomonidan bu faoliyatni quyidagi tarzda bosqichma-bosqich amalga oshirishi uchun imkoniyat yaratadi:

##### **Birinchi bosqich:**

- hunarmandchilik yo‘nalishi bo‘yicha boshlang‘ich ma’lumotga ega bo‘lish;
- hunarmandchilik yo‘nalishlaridan birini tanlash;
- bozor qonuniyatlari va iste’molchilar talabini o‘rganish;
- usta bilan birgalikda hunar o‘rganish rejasini ishlab chiqish.

### **Ikkinchi bosqich:**

- ko‘zlangan maqsadga erishishda imkoniyat darajasida xom ashyo, kerakli jihozlar hamda ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib olish;
- moliyaviy imkoniyatlarni, taxminiy sarf-harajatlarni, ko‘zlangan foyda miqdorini oldindan baholay olish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki ko‘rsatilayotgan xizmat nafaqat hunarmandning o‘zi uchun balki, jamiyat uchun ham foyda keltirishini hisobga olish.

### **Uchinchi bosqich:**

- iste’molchilarning imkoniyatlari va talablariga mos sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan xarajatlarni hisobga olgan holda narx belgilash;
- tayyor mahsulotni iste’molchilarga etkazib berish.
- tayyor mahsulot sotuvga chiqarilgandan so‘ng, zarur hollarda uning reklamasini yaratish mumkin.

Hunarmandchilik faoliyatining yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan jihatlariga amal qilish yoshlar uchun alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

YAkka tartibdagi tadbirkorlik – hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirishning eng oddiy shakli bo‘lib, bu jarayonda hunarmandlar mayda ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadilar. YOshlar hunarmandchilik faoliyatlarini tanlash uchun bu sohada nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim. O‘z ishini boshlayotgan yosh hunarmand faoliyat sohasi va mahsulot bozorini tanlashda dastavval bu yo‘lda qanday to‘siqlar mavjudligini tasavvur qila olishi lozim. Bu esa bo‘lajak hunar egasiga qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanish foydali ekanligini aniqlashga ko‘maklashadi.

YOshlarni hunarmandchilik faoliyatiga tayyorlash uchun ustoz-murabbiylardan quyidagilar talab etiladi:

- o‘z hunarmandchilik faoliyatlari va shaxsiyatlaridagi kamchiliklar

va turli illatlarni bartaraf etishlari;

– yoshlarni mehnat faoliyatlaridagi kamchiliklarni ko‘ra olishlari va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsata bilishlari;

– hunarmandlarga xos bo‘lgan ahloqiy sifatlarga ega bo‘lishlari va uni o‘z shogirdlari va farzandlariga singdira olishlari zarur.

Xalq hunarmandchiligi maktablari asosida yoshlarni kasbga tayyorlashda muayyan tamoyillarga tayanib ish ko‘rish talab etiladi. Ular:

1. Ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyili. Har qanday hunarmandchilik texnik taraqqiyoti natijalari va mavjud tajribalarni ilmiy ijodiy o‘zlashtirishni talab qiladi. Sohasigi bilimlar yoshlarning dunyoqarashi va kasbiy ko‘nikmalarini boyitadi. Mazkur bilimlar esa, ularga tizimli asosda taqdim etilgandagina kutilgan samaradorlikka erishish imkoniyati vujudga keladi.

2. Nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog‘liqligini ta‘minlash tamoyili ham yoshlarni hunarmandchilik faoliyatiga tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil hunar o‘rganish jarayonida o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda izchil qo‘llashni taqozo qiladi. YOshlarda hunarmandchilikka oid bilim va tushunchalarni shakllantirishda, ular faoliyatini amaliy tashkil etish, ya‘ni zarur ish qurollari, texnik vositalar, qo‘llanma va tavsiyalarning etarli bo‘lishi alohida ahamiyatga ega.

3. YOshlarni hunarmandchilik faoliyatiga tayyorlashda onglilik va faollik tamoyilini tadbiq etish o‘ta muhimdir. Chunki o‘smir hunar egallashga ongli tarzda faol kirishishi kerak. U avvalo, o‘zi egallayotgan hunarning o‘ziga xos jihatlari va mohiyatini ongli tarzda to‘liq anglab etishi, uning istiqboli haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

4. YOshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashda yosh xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Ularni hunar egallashga tayyorlash jarayonida imkoniyatlari, fikrlash darajalari, jismoniy qobiliyati, qiziqishlari inobatga olinishi lozim.

5. YOshlarni hunar egallashga tayyorlashda ularning kasb-hunar sirlarini puxta egallashlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Muayyan kasb-hunar sohasiga oid bilimlar o'smirlar tomonidan puxta o'zlashtirilib, amaliyotga tadbiq etilgandagina ko'nikmaga aylanadi. Bu jarayonda ular tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar muntazam tarzda takrorlanadi va ularning xotirasida mustahkamlanadi.

6. Ko'rgazmalilik tamoyili. YOshlarni hunarmandchilik faoliyatiga tayyorlashda buyumlarni asl holicha ko'rgazmali namoyish qilinishi, tasviriy vositalar, ko'rgazmalar, muzeylar xizmatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ularni kasb-hunarga tayyorlashda, mehnat jarayonlarini tabiiy tarzda ularga ko'rsatish, ularni tez-tez ustaxonalar, hunarmandchilik savdo rastalariga olib borish alohida amaliy ahamiyatga ega. Bu jarayonda ularning muayyan kasb-hunar, tadbirkorlik faoliyati haqidagi tasavvurlari, dunyoqarashlari kengayadi, egallagan bilimlari mustahkamlanadi.

Bolaga biror kasbni hech qachon majburlab o'rgatmaslik kerak. CHunki bu ish qanchalik yaxshi niyat bilan qilinmasin, baribir yaxshi oqibatlarga olib bormaydi. Agar yoshlarda shu kasbga qiziqish bo'lmasa, garchi ota-onaning hoxish-irodasi, majburlashi bilan kasbni egallasa ham keyinchalik uni tashlab, o'zi qiziqqan sohaga o'tib ketadi. Bunda ko'pincha bolaning ota-ona tanlagan kasbni o'rganishiga sarflagan harakati, afsuski zoe ketadi. Umuman yoshlarning kasb tanlash masalasida shoshma-shosharlik, o'zbilarmonlikka mutloqo yo'l qo'ymaslik, bu masalani chuqur o'ylab, bolaning hoxish-istagini hisobga olgan holda masalani hal etmoq maqsadga muvofiqdir. SHundagina jamiyatning ota-onalar oldiga qo'yayotgan vazifalari, yoshlarning har tomonlama uyg'un kamol topishi masalalari to'g'ri hal qilingan bo'ladi. CHunki, o'smir "kim bo'lsam ekan?" degan muammoni to'g'ri hal etmasa, bo'lajak kasbini to'g'ri tanlamasa, iqtisodiy hayotini taminlamasa, o'z kasbidan qoniqish hosil qilmasa, o'ziga ham, jamiyatga ham etkaza olmaydi. O'z ishi, hayotidan mamnun kishigina

shaxsiy turmushi, oilaviy hayotini to‘g‘ri tashkil qila oladi.

Ishlab chiqarishning mavjud kasb egalariga ehtiyojini hisobga olgan holda, ishlab chiqarish korxonalarining buyurtmalariga muvofiq tarzda kadrlar tayyorlash davlat va jamiyatning muhim talablaridan biridir. Bu borada “Hunarmand” uyushmalarining tajribalari alohida ahamiyatga ega. Uyushmaga a‘zo hunarmandlarning shogirdlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganib chiqib, mohir hunarmandlar ustaxonalari qoshida “Usta-shogird” maktablarini tashkil etish tajribasi boshlangan.

Hunarmandchilik sohasidagi o‘zgarishlar va rivojlanishlardan dastlab ota-onalarning o‘zlari xabardor bo‘lishlari lozim. SHuningdek, ota-onalar hunarmandlar orasidagi sog‘lom raqobatning mohiyatini anglashlari hamda uni farzandlariga ham anglatishlari taqozo qilinadi. Hunarmandchilik sohasida sog‘lom raqobat muhitining mavjudligi ushbu faoliyatni yanada rivojlanishiga olib keladi.

Muhimi shundaki, usta-hunarmandlar shogirdlariga hunar egallash jarayonida vujudga keladigan to‘siqlarni bartaraf etish yo‘llarini ham o‘rgatib borishlari kerak. Bunda ular quyidagilarga e‘tibor qilishlari lozim:

- hunarmand o‘z rejasiga asosida ko‘zlangan foydasini aniq hisobga olishi va natijasini ko‘ra bilishi;
- mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur xom ashyolarni izlab topish hamda uni maqsadli, tejamkorlik bilan sarflash talab etiladi.

Hunarmandchilikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- tijorat sir-asrorlarini saqlash;
- foyda olishga intilish;
- tavakkalchilik asosida ish yuritish;
- tashabbuskorlik, yangiliklarga intiluvchanlik, faollik kabilar.

Bugungi kunda respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish borasidagi muhim vazifalardan biri – hunarmandchilik faoliyatini har tomonlama qo‘llab-

quvvatlash, uni rivojlantirish, shu asosida aholining bandligi va farovonligini oshirishdan iborat.

YOshlarni hunarmandchilik faoliyatiga tayyorlashning samaradorligini oshirish ko'p omillar bilan bog'liq. Bunday omillar sirasiga O'zbekistonda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarni ko'rsatish mumkin. Respublikamiz aholisining moddiy farovonligini oshirish davlat siyosati darajasidagi ustivor masalalardandir. Bu o'z navbatida yoshlardan sobitqadamlik va mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Chunki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yoshlar muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham o'smirlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash, ularga iqtisodga oid bilimlarni o'rgatish lozim. Iqtisodiy bilimlar yoshlarning mamlakat iqtisodiy barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlash uchun mehnat qilishlari, o'z vaqtlarini foydali ishlarga sarflashlariga ko'maklashadi. Mehnat qilish va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash, kichik va o'rta biznesga hissa qo'shishga undaydi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonining mazmunini belgilashda, bolaning yosh davrlari alohida hisobga olinadi. YOsh davrlari ichida o'smirlik davri alohida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. O'smir yoshdagi o'quvchilarning qiziqish doirasi ancha keng bo'lib, ularning e'tiborini o'qishdan tashqari ko'pgina ishlar ham jalb qila boshlaydi. Jamoa ishlarida tashabbuskorlik, jo'shqinlik, oldi-sotdi ishlari, ishlab pul topishga qiziqish, mustaqillikka intilish shular jumlasidandir.

YOshlarni hunarmandchilikka jalb etish, usta-shogird munosabatlarini yo'lga qo'yish, usta-shogird maktablarini tashkil etishda Respublika "Hunarmand" uyushmasining alohida o'rnini bor. Bu borada Shahrixon shahar "Hunarmand" uyushmasining bo'limi rahbari S.Ne'matovning quyidagi fikrlarini misol qilib keltiramiz: "Uyushmamiz 1998 yil iyul oyida shahar hokimligining tashabbusi bilan tashkil etilgan. Bundan maqsad har biri o'z holicha, o'z kuchiga tayanib, ishlab yurgan hunarmandlarni birlashtirish, bamaslahat ish yuritib, barcha hunarlarni yanada rivojlantirish yo'llarini

qidirish, yordamga muhtoj hunarmandlarga ko‘mak berish, hunarmandlarni zarur xom ashyo bilan ta‘minlash, tayyorlagan mahsulotlarining reklamasini uyushtirish, kerak bo‘lsa hunarmandchilik mahsulotlarining savdo-sotig‘iga yordam berish, ayniqsa, yoshlarga kasb-hunar o‘rgatishni yaxshilashdan iborat”.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlaganidek, “yoshlarimizga ta‘lim berish va ularni kamol toptirishga yo‘naltirilgan xizmatlar ko‘rsatuvchi muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini, masalan, xalq hunarmanchiligi bilan shug‘ullanuvchi “Ustoz-shogird” guruhlarini ko‘paytirish talab etiladi”<sup>6</sup>

YOshlarni kasb-hunarga tayyorlash jarayonida ular tomonidan quyidagi sifatlar egallanishi lozim:

– bozor holatini, talab va takliflarini o‘rgangan bo‘lishlari, ertangi kun talabi darajasida ish tuta olishlari, qat‘iylik, maqsadga intiluvchanlik, o‘z bilganlarini farzandlariga o‘rgata olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari;

– raqobatbardosh va muayyan tadbirkorlik g‘oyasiga ega bo‘lishlari;

– muvaffaqiyatni ta‘minlay olishlari;

– zarur xom ashyo zahirasi yoki ularni sotib olish imkoniyatlariga ega bo‘lishi;

– foydani ko‘paytirish uchun to‘g‘ri qaror qabul qila olishlari lozim.

SHuning uchun tadbirkor faoliyatida muhim o‘rin egallagan buyurtmalarni shaxsan o‘zi yoki boshqa mutaxassislar yordamida izlashi zarur.

Tajriba-sinov ishlari davomida SHahrixon shahridagi “Hunarmand” uyushmasida bir guruh yoshlar ishtirokida “YOshlarda hunarmandga xos ma‘naviy-ahloqiy va kasbiy sifatlarni tarbiyalash” mavzusida tashkil etilgan seminarida quyidagi masalalar atroflicha muhokama qilindi (02.06.17 y):

---

<sup>6</sup> Qurbonov Sh., va boshqalar. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). –T.: Sharq, 1998. 170-6.

1. Hunarmandlarga xos bo'lgan sifatlar: halollik, to'g'riso'zlik hamda xushmuomalalikning hunarmand va tadbirkorlarga xos muhim ma'naviy-ahloqiy sifatlar ekanligi.

2. Xom ashyoni tanlashdagi oqillik, ziyraklik, epchillik, mohirlik, vaziyatni to'g'ri baholash olish, tezkor qaror qabul qilish kabi sifatning hunarmand shaxsida aks etishi zarurligi.

3. Hunarmand shaxsida aks etuvchi kasbiy sifatlar (faoliyat rejasini ishlab chiqish, sarmoya to'plash, shaxsiy imkoniyatlarni to'g'ri baholash, mavjud zahiralardan oqilona foydalanish, faoliyatga mas'uliyatli yondashish, tavakkalchilik, faoliyat natijalarini tahlil qilish).

Uyushma rahbari yoshlarni hunarmandchilik faoliyatiga tayyorlashda ularni quyidagi bilimlar bilan qurollantirish lozimligini uqtirdi:

- 1) yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish yo'llari;
- 2) pedagogik-psixologik bilimlar;
- 3) yoshlarda muayyan kasb-hunar, tadbirkorlikka nisbatan ongli ijodiy yondashuvni qaror toptirish imkoniyatlari;
- 4) hunarmandchilik sohasining mazmun-mohiyatini anglatish kabilar.

### **3.2. Hunarmandchiligi maktablarida yoshlarni kasbga tayyorlashning shakli, metodlari va tajribalar**

Izlanuvchan, o'z hunari bo'yicha mahorat cho'qqisiga erishgan ustalar hunarmandchilik sohasida o'zlarining shaxsiy uslublari, maktablarini yaratishga mavaffaq bo'lganlar. SHunday maktablar sirasiga SHahrixon hunarmandchilik maktablarini kiritish mumkin. Bu maktablar faqat respublikamizdagina emas, balki xorijiy mamlakatlarda ham mashhurdir. Ayniqsa, SHahrixonning pichoqchilik, shoyi to'qish, zargarlik, chevarlik, zardo'zlik maktablari ko'pchilikka ma'lum.

Tadqiqot doirasida Andijon viloyati SHahrixon Hunarmand uyushmasi

negizidagi hunarmandchilik maktablarining yoshlarni kasbga tayyorlash tajribalari o'rganildi. Bunda hunar o'rganishning boshlang'ich holatini kuzatdik. Kuzatish ishlari hunarmandlar oilalari, ustaxonalari va kichik hunarmandchilik korxonalarida olib borildi. Hunarmandchilik faoliyatini tashkil etish jarayonining mazmuni, shakllari, metodlari va usullari tadqiq etildi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish davrida respondent yoshlar ishtirokida ularni hunarmandchilik yo'nalishlariga tayyorlashga xizmat qiluvchi turkum tadbirlar tashkil etildi. Quyidagi ularning ayrimlari to'g'risida to'xtalib o'tiladi.

“Temirchilik – milliy hunarmandchilikning muhim ko‘rinishi” mavzusida SHahrixon shahridagi “Hunarmand” uyushmasida suhbat o‘tkazildi.

Suhbat uyushmaning a'zosi temirchi-hunarmand Haydarov Muhammadali (1985 yil) ishtirokida o'tkazildi. Suhbatda 25 nafar o'smirlar ishtirok etdilar.

Suhbatning maqsadi: yoshlarda temirchilik hunari va uni amalga oshirish jarayoni haqida tushunchalar berish orqali ularni kasbga tayyorlash.

Suhbat quyidagi reja asosida tashkil etildi:

1. Haydarov Muhammadali temirchilik ustaxonasi haqida ma'lumot.
2. YOshlarga temirchilik hunarini o'rgatish usullari va yo'llari.
3. Temirga ishlov berish jarayoni.
4. Temirchilik kasbi odobi haqida tushuncha berish.
5. YOsh temirchi-tadbirkorlar tayyorlash jarayoni.

Suhbatda Haydarov Muhammadali quyidagilarni bayon qildi: “SHogirdsiz usta usta emas. Zero, shogirdlarga egalik ustaning mahorati yuqori, tajribasi ko'p ekanligidan dalolat beradi. SHu bilan birga umid bilan oldingizga hunar o'rganish niyatiga kelgan yoshlarga hunar sirlari va ish tajribangizni o'rgatish ezgu ish sanaladi.

Temirchining asosiy xom ashyosi temir ekanligini inobatga olgan holda shogirdlarimga, avvalo, uni boshqa metallardan farqlay olishga o'rgataman. Chunki metallarning ko'plab turi bo'lib, hunar egasidan tayyorlanadigan buyum xususiyatlariga ko'ra ularni to'g'ri tanlay olish maqsadga muvofiqdir.

Metallning to'g'ri tanlanishi: 1) buyumning sifatini ta'minlaydi; 2) vaqtning behuda sarflanishining oldini oladi; 3) xaridorlarning noroziliklariga sabab bo'lmaydi; 4) buyumning sotilishida muammo yuzaga kelmaydi; 5) mehnat samaradorligini ta'minlashga yordam beradi; 6) hunarmandning mahorati tan olinadi.

Tesha, poytesha va bolta singari ro'zg'or uchun zarur buyumlarni po'latdan tayyorlash lozim. Agar ular yumshoqroq metallardan tayyorlansa, ularni ishlatishda noqulaylik va hatto xavf yuzaga kelishi (yog'ochga urilgan tesha yoki boltaning yuzga qayta urilishi) mumkin.

Ish jarayonida quyidagilarga ham e'tibor berish zarur: 1) metallning qizdirilishi; 2) metallga ishlov berilishi (bunda, ayniqsa, yasalayotgan buyumni o'tdan chiqarib, suvga solishda alohida xushyorlik talab etiladi, qizigan metallni suvda kamroq yoki ko'proq ushlab turilishi buyum sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi).

Barcha faoliyatda bo'lgani kabi temirchilikda ham o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelinadi. Biroq, shuni ishonch bilan ayta olamanki, yangi shogirdlar jarayonni tashkil etishdan bir oz cho'chisa-da, ammo metallning ko'mir alangasida toblanib, qip-qizil cho'g'ga aylanishi, xamirdek yumshashi, ishlov berilgan sari qizdirilgan metallning muayyan shaklga kirishi ularda temirchilik sir-asrorlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi".

Faoliyati davomida ko'plab shogirdlarni tayyorlagan temirchi usta Haydarov Muhammadali shogirlarning yosh va psixologik xususiyatlari, mehnatga bo'lgan munosabatlari, shuningdek, ularni hunarga to'g'ri

yoʻnaltirish zarur ekanligini taʼkidlar ekan, quyidagilarga alohida urgʻu beradi:

“Kasb tanlash yoki hunar oʻrganish murakkab jarayon. Oʻsmirlikda qiziqishlar beqaror, hayotiy tajriba etarli boʻlmaydi. SHu sababli ota-onalar va ustozlar ulardagi qiziqishlarni barvaqt payqay olishlari, bilimlari darajasi, jismoniy imkoniyatlari, qobiliyatlari hamda xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda kasb-hunarga toʻgʻri yoʻnaltirishlari kerak.

Oʻsmirlarning maʼlum kasb-hunar sirlarini oʻrganishga boʻlgan qiziqishlari ota-onalar yoki katta yoshli oila aʼzolari tomonidan ularning kundalik faoliyatlarini bevosita kuzatish, bilim olishlarini nazorat qilish, sinf rahbarlari, fan oʻqituvchilari bilan suhbatlashishlari asosida aniqlanadi va muayyan sohaga qiziqishi, moyiligi, hatti-harakatlarini kuzatish orqali anglashlari mumkin. Ota-onalar, oila kattalari va ustozlar tomonidan oʻzlarining kasblari toʻgʻrisida qilingan qiziqarli hikoyalarini tinglash, ularning faoliyatlarini kuzatish oʻsmirlarda kasbiy qiziqishlarni shakllantiradi. Bu oʻrinda oʻsmirlarga kasb-hunar turlari, oʻziga xosligi, oilaviy byudjetni shakllantirishdagi oʻrni toʻgʻrisida oʻsmirlarga batafsil malumotlarni berish ham maqsadga muvofiqdir”.

Haydarov Muhammadali ish tajribalarini oʻrganish jarayonida ustaning shogirdlar bilan munosabatni quyidagicha tashkil etishiga guvoh boʻlindi:

1) farzandini shogirdlikka olishni soʻragan ota-onalarning istaklarini inobatga olish;

2) bir necha kun davomida temirchining maʼnaviy-ahloqiy qiyofasi va faoliyatni tashkil etishda amal qilishi zarur boʻlgan qoidalar bilan shogird boʻlish istagida kelganlarni tanishtirish;

3) temirchilik asbob-uskunalar bilan ishlash shartlarini tushuntirish, temirchilik buyumlarini tayyorlash jarayoni bilan bevosita tanishtirish;

4) dastlabki topshiriqlarni berish va boʻlajak shogirdning ularni bajarishga boʻlgan yondashuvini kuzatish, maʼnaviy-ahloqiy sifatleri,

atrofdagilar bilan muomalasini bevosita o'rganish temirchilik hunarini o'rganishga ishtiyoqi bo'lgan yoshlarni aniqlash.

SHuni alohida qayd etish lozimki, Haydarov Muhammadali faoliyat jarayoniga munosabati salbiy bo'lgan yoshlarni bir necha kun davomida aniqlab, ularga ruhsat beradi. Usta tomonidan bunday yo'l tutilishining asosiy sababi ular faoliyatida quyidagi holatlarning namoyon bo'lishidir:

- 1) temirchilik faoliyatiga nisbatan befarqlik;
- 2) berilgan toshriqlarning hafsalasiz bajarilishi;
- 3) murakkab topshiriqlarni bajarishdan o'zni olib qochish;
- 4) asbob-uskunalarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lish;
- 5) ustaxonaga hafta yoki oy davomida qatnayotgan bo'lsa-da, hunar asoslarini o'rganishga qiziqmaslik.

Bu kabi salbiy xatti-harakatlarni sodir etayotgan o'smirlar bilan ishlashda usta Haydarov Muhammadali alohida yondashish, hayotiy misollar yordamida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, faoliyatida aniqlangan kamchiliklarga barham berish maqsadida ularni o'smir bilan birga bartaraf etish, so'nggi vaziyatlarda esa nasihat qilish va tanbeh berish kabi metodlardan foydalanish asosida ularda temirchilik faoliyatiga qiziqishni yuzaga keltirishga urinadi. Bordi-yu, shunda ham o'smirda ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lmasa, u holda ota-onalarni vaziyatdan xabardor qiladi va farzandlarini ularni o'zlari qiziqqan yo'nalish bo'yicha hunar o'rganishlari maqsadga muvofiq ekanligini tushuntiradi.

Faoliyati davomida ustaning shogirdlari Haydarov Muhammadalining qattiqqo'lligi, muomalasidan norozi bo'lishgan emas. Zero, usta xushmuomala, keng fel, shirinso'z bo'lib o'sgan, shogirdlari, hatto farzandlariga ham noo'rin tanbeh bermaydi, qattiq gapirmaydi.

Tadqiqotni olib borish davrida usta Haydarov Muhammadalining shogirdlari bilan suhbatlar tashkil etildi. SHogirdlardan biri ustaning shaxsi va faoliyati yuzasidan quyidagilarni bayon qiladi: "Ustaxonaga kelgan

dastlabki kunlarda menda hadik va xavotir bor edi. Chunki temirchilikdan deyarli xabarim yo‘q edi. Qolaversa temirchilik asboblari (bolg‘a, sandon, bosqon, sumba, ombir, metall kesadigan maxsus qalam, temir qaychi va hokazolar)ning xilma-xilligi “ularni bir-biridan ajrata olmasam kerak!” degan xulosaga kelishimga sabab bo‘lgan edi. Keyinchalik ularning qanday vazifalarni bajarishlarini bilib oldim. Masalan, sumbada tesha va boltalarning zug‘otasi teshilsa, qalamda qizigan metall kesiladi, uzun sopli ombir yordamida qizigan metall o‘tdan olinib, sandonga quyiladi. So‘ngra bolg‘a va bosqon bilan urilib ishlov beriladi.

Temirchilik sirlarini o‘rganish davrida shunga ishonch hosil qildim, uni o‘rganish qiyin emas. Faqat qiziqish, xafsala va kuch kerak bo‘ladi. Hunarlarning bu turi ko‘p jismoniy kuch talab qiladi. Ish jarayonida tana va muskullar chiniqadi. Dastlabki kunlarda tez charchab qolardim, endi esa ko‘nikib qoldim.

Ustamiz keng fe‘lli, jonkuyar ustoz. Umumiy jarayonda qilinishi kerak bo‘lgan har bir harakatning bajarilish shartlarini batafsil o‘rgatadilar. Berilgan ma‘lumotlarni yaxshi anglamagan bo‘lsak, ularni qaytadan tushuntiradilar, xatolarini ko‘rsatadilar. Ustozimga shogird ekanligimdan o‘zim ham, ota-onam ham xursandmiz”.

Tajriba-sinov ishlari davrida usta Haydarov Muhammadali bilan tashkil etilgan suhbatning bevosita ustaxonada tashkil etilganligi respondent-o‘smirlar tomonidan temirchilik hunariga oid nazariy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish hamda ustalarning amaliy ishlarini kuzatish imkonini berdi. Ustaxonaga uyushtirilgan sayohat davrida usta Haydarov Muhammadali o‘smirlarga temirchilik asbob-uskunalari, ularning vazifalari, umumiy jarayonda ulardan foydalanish vaqti, temirchilikda ishlatiladigan metallar va ularning xususiyatlari to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni berdi.

Suhbat yakuniga ko‘ra o‘smirlar tomonidan temirchilik faoliyatiga oid nazariy bilimlarning o‘zlashtirilganlik darajasi aniqlandi. Bu o‘rinda ulardan

quyidagi savollarga javoblar olindi:

1. Temirchilik hunari haqida qanday tushunchalarga ega bo'ldingiz?
2. Temirchilik xom ashyolarini nimalar tashkil qiladi?
3. Temirchilik buyumlari sirasiga nimalar kiradi?
4. Temirchilikda metallar bilan ishlash shartlari nimalardan iborat?
5. Metallarni bir-biridan farqlay olasizmi?

O'smirlarning ushbu savollarga javoblari umumlashtirilib, temirchilik haqidagi nazariy bilimlarining darajasi baholandi. Javoblar quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'ldi (3.2.1-jadval).

Jadval ko'rsatkichlaridan anglanadiki, tajriba guruhlarining 12 nafar respondentlari o'z javoblarida temirchilik hunari to'g'risidagi nazariy bilimlarining yuqori ekanligini namoyon etgan holda temirchilik xom ashyolaridan xabardorlikka oid savollarga javob qaytarishda yuqori daraja bo'yicha past ko'rsatkichlar 4 nafar respondentning javobida ko'zga tashlandi.

3.2.1-jadval

Respondent-o'smirlarning temirchilikka oid bilimlari darajasi

Savollar tartibi	Respondentlar soni – 25 nafar		
	YUqori	O'rta	Past
1-savol	12	8	5
2-savol	10	11	4
3-savol	11	8	6
4-savol	12	7	6
5-savol	10	9	6
Jami	45	34	21

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda amaliy faoliyatning texnologik yondashuvga asoslanishiga alohida e'tibor qaratildi. Zero, texnologik yondashuv o'smirlarni turli yo'nalishlardagi hunarmandlik faoliyatiga jalb etish asosida ularda tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni izchil, tizimli va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi.

SHu sababli hunarmand-tadbirkorlarning ilg'or ish tajribalarini o'rganishda maqsadida tashkil etiluvchi tadbirlarning texnologik loyihalari ishlab chiqildi. Jumladan, temirchi usta H.Umarovning faoliyatini o'rganish, respondent-o'smirlarni ustaning ish tajribasi bilan tanishtirish maqsadida tashkillashtirilgan suhbat quyidagi texnologik loyihaga asoslandi (3.2.2-jadval).

3.2.2-jadval

Suhbatning texnologik xaritasi

Tadbir mavzusi: Temirchilik – milliy hunarmandchilikning muhim ko‘rinishi
Tadbir shakli: suhbat
Ko‘zlangan maqsad: Andijon viloyati SHahrixon shahridagi “Hunarmand” uyushmasi a‘zosi temirchi-tadbirkor Haydarov Muhammadali ish tajribasini o‘rganish orqali o‘smirlarga temirchilik faoliyati to‘g‘risidagi nazariy va amaliy bilimlarni berish.
Vaqt: 2 soat
Tadbir o‘tkazilgan joy: hunarmand-tadbirkor Haydarov Muhammadali ustaxonasi
Respondentlar soni: 25 nafar
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘smirlarga bozor iqtisodiyoti sharoitida hunarmandchilik faoliyati bilan shug‘ullanish oila byudjetini shakllantirish, jamiyat iqtisodiy va madaniy hayotini rivojlantirishda etakchi omillardan biri ekanligini tushuntirish.</li> <li>2. “Hunarmand” uyushmasi qoishida tashkil etigan “Ustoz-shogird” maktabi haqida ma’lumot berish.</li> <li>3. O‘smirlarga temirchilik hunariga oid nazariy tushunchalar berish.</li> <li>4. O‘smirlarni temirchilik asbob-uskunalaridan foydalanish va xom ashyo bilan ishlash metodlari bilan tanishtirish.</li> <li>5. Ularda xaridorlar bilan muomala qila olish sifatlarini shakllantirish.</li> </ol>
Kutilgan natija: o‘smirlarda temirchilik hunarini o‘rganishga qiziqishning uyg‘onishi, nazariy bilimlarning hosil bo‘lishi, amaliy ko‘nikma va malakalarning shakllanishi, hunarmandga xos ma’naviy-ahloqiy sifatlarning tarbiyalanishi.
Qo‘llanilgan metodlar: og‘zaki bayon qilish (hikoya qilish, tushuntirish), ko‘rsatmalilik, namuna ko‘rsatish, faoliyatda mashqlantirish, nazorat.
Foydalanilgan vositalar: ustaxona jihozlari, temirchilik asbob-uskunalari, jonli nutq, ish qog‘ozlari (savollarga javob qaytarish uchun).

Tajriba-sinov ishlari davrida tashkil etilgan tadbirlardan biri – bu SHahrixon shahrida yashovchi kandakor S.Ne'matov ishtirokidagi uchrashuv bo'ldi. Uchrashuvda 25 nafar respondent ishtirok etdi.

Uchrashuv quyidagi reja asosida tashkillashtirildi:

1. Kandakor-tadbirkor S.Ne'matovning tadbirkorlik sohasida olib borayotgan ishlari haqida ma'lumot.

2. Kandakorlik hunarining o'ziga xos xususiyatlari.

3. Kandakorlikni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar.

2. O'smirlar tomonidan amaliy kandakorlikka oid ko'nikmalarning darajasini aniqlash.

Uchrashuvni usta R.Alixo'jaev boshqarib, kandakor usta S.Ne'matovning faoliyati va yoshlar, shu jumladan, o'smirlarga hunarmandchilik sirlarini o'rgatish hamda mazkur yo'nalishda olib borayotgan tadbirkorlik faoliyati to'g'risida ma'lumotlar berdi. R.Alixo'jaev o'z so'zida quyidagilarni alohida ta'kidladi: "Usta S.Ne'matov "Usta-shogird" maktabini yaratgan. Ayni vaqtda yoshlar, shu jumladan, o'smirlar tomonidan kandakorlik sirlarining o'rganilishida ushbu maktabning roli beqiyos bo'lmoqda.

Kandakor S.Ne'matov bugungi kunga qadar 30 dan ziyod shogirdlarni etishtirgan bo'lsa-da, biroq, ularni tanlashga nihoyatda mas'uliyatli yondashadi. Zero, hunar sirlarini o'rganish uchun kelgan yoshlarning barchasi ham kandakorlik yo'nalishida faoliyat yurita olmaydi. Istak, maqsad, qobiliyat va jismoniy imkoniyatga ega o'smirlargina kandakorlikning hayotiy faoliyatlariga aylanishiga erishishlari mumkin.

Usta S.Ne'matov shogirdlarni tanlashga quyidagicha yondashadi:

1) hunar o'rganish istagida kelgan o'smirlarga bir necha savollar berib, uning aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholaydi;

2) o'smirning bir necha kun davomida ustaxonada kechayotgan

faoliyat bilan batafsil tanishishiga imkon beradi;

3) so'ng chizmachilik va naqsh solish qobiliyatiga egaligini sinovdan o'tkazadi: a) qog'ozga chizilgan eng sodda naqsh unsurlarini o'sha hajmda qog'ozga ko'chirish; b) namuna uchun tavsiya etilgan naqshlarning ko'rinishini o'zgartirmagan holda ikki barobar kattalashtirib chizish; v) namuna naqshlarini yana ikki barobar kichraytirib chizish. Bunda naqsh hajmi o'zgartirilsa-da, biroq uning sifati o'zgarmasligi talab etiladi); g) murakkab shakllarni chizish (bu o'rinda osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi topshiriqlar beriladi).

S.Ne'matov shogirdlarning intizomli bo'lishlari alohida e'tibor qaratadi. SHu sababli ish jarayonida amal qilinishi zarur bo'lgan qoidalar tizimini ishlab chiqqan va shogirdlarning ularga amal qilishlarini nazorat qiladi.

Ushbu qoidalar tizimi quyidagilardan iborat (o'smirlarga qoidalar tizimi bayon etilgan estaliklar tarqatiladi. Estalikda quyidagi qoidalar o'z ifodasini topgan:

1-qoida: ishga belgilangan vaqtda kelib-ketish.

2-qoida: ustaxonaning ozoda va asbob-uskunalarining tartibli bo'lishiga e'tibor qaratish.

3-qoida: ish vaqtida ruhsat etilgan asboblardangina foydalanish (bu holat texnika xavfsizligini ta'minlashni ko'zda tutadi).

4-qoida: ustaning ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglash, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish.

5-qoida: ustaxonaga kelganlarga xushmuomalada bo'lish, hamkasblar va ustani hurmat qilish.

6-qoida: bozorga tayyor mahsulotlarni chiqarganda o'z molini ortiqcha maqtab, o'zgalah mahsulotining qiymatini tushurmaslik, buyumga ortiqcha narx qo'yimaslik.

7-qoida: doimo halol bo'lish, yolg'on so'zlamaslik va xaridorni

aldamaslik).

Qadim-qadimdan ustaxonalar hunar o'rganish maskani bo'libgina qolmay, balki yoshlarda ma'naviy-ahloqiy sifatlarni shakllantirishga yordam beruvchi odob-ahloq maktabi ham hisoblanadi. Boy ma'naviy meros an'analari sodiq bo'lgan usta S.Ne'matov ham shogirdlarining yuksak ahloqiy sifatlarga ega bo'lishlariga, usta-shogirdlar o'rtasidagi munosabatning o'zaro hurmat va ishonchga asoslanishiga e'tibor qaratadi.

Ustaning pedagogik faoliyatida quyidagi yondashuvlarning mavjudligi shogirdlar tomonidan kandakorlik sirlarini puxta o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi:

1) bozorlar, savdo rastalari, hunarmandchilik do'konlari va muzeylarga tashrif buyurish asosida shogirdlarni xalq ma'naviy mulkiga aylangan qadimiy kandakorlik, zargarlik buyumlari, mohir ustalar tomonidan yuksak mahorat bilan yasalgan kandakorlik buyumlari (bejirim pichoqxanjarlar, oftoba, qumg'on va hokazo) bilan tanishtirib borish;

2) kandakorlik buyumlarining yaratilish tarixi, kandakor ustalarning mahorati to'g'risida qiziqarli hikoyalar so'zlab berish orqali shogirdlarni doimiy harakatga, faollikka va ijodiy izlanishga undash;

3) shogirdlariga kandakorlik bilan shug'ullangan mashhur tarixiy shaxslar to'g'risida ma'lumotlar berish (bu o'rinda Dovud alayhissalomning temirchilik, alloma Abu Nasr Forobiyning bog'bonlik, shoir Sakkokiyning pichoqchilik, Zavqiyning mahsido'zlik, so'fiylik ta'limotining asoschilaridan biri Bahovuddin Naqshbandning kimxobboflik shug'ullanganliklari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish ijobiy natijalarni beradi. Bu o'rinda ustaning Dovud alayhissalomning kasbiy faoliyatiga oid quyidagi rivoyatdan foydalanish shogirdlarda hunarga nisbatan hurmat va mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Rivoyatda aytilishicha, Dovud alayhissalom podshoh bo'lganidan so'ng, bir kuni dehqon kiyimida ko'chaga chiqib, bir kampirdan "Dovud yaxshi odammi yoki yomon?", –

soʻrabdilar. SHunda kampir: “Dovud yaxshilikka yaxshi-yu, lekin fuqarolar haqini emoqda, chunki uning hunari yoʻq” deb javob beribdi. Kampir qiyofasida boʻlgan farishtaning bu fikri Dovud alayhissalomga juda qattiq taʼsir qilibdi. SHu sababli Dovud alayhisallom temirchilikni oʻrganibdi va oʻz mehnati hisobiga kun kechiribdi”. Kandakor usta S.Neʼmatov oʻzi yasagan va xalq orasida dovrugʻ qozongan ajoyib buyumlar, nafis sanʼat asarlari bilangina emas, balki yuksak insoniy fazilatlari, mahoratli ustoz ekanligi bilan ham el nazariga tushgan. Uchrashuvning navbatdagi bosqichida kandakor usta R.Fatullaev kandakorlikning hunarmandchilikda tutgan oʻrni, tarixiy rivojlanishi, uning oʻziga xos jihatlari, yoshlarning nafosat didini tarbiyalashdagi roli, tadbirkorlik koʻnikmalarini egallashlariga koʻrsatuvchi taʼsiri, ish jarayonining borishi, kandakorlikda foydalaniluvchi asbob-uskunalar toʻgʻrisidagi nazariy maʼlumotlar bilan respondent-oʻsmirlarni tanishtirdi. S.Neʼmatov oʻz soʻzida quyidagilarga toʻxtalib oʻtdi: milliy hunarmandchilik, xalq amaliy sanʼatining qadimiy turi boʻlgan kandakorlik metallarga oʻyma, chizma naqshlarni tushirish sanʼati sanaladi. Kandakorlik buyumlari sifatida mis oftoba, qumgʻon, tuvakcha va laganlar mashhurdir. Milliy hunarmandchilikda bu kabi buyumlarga asosan oʻsimliksimon hamda oʻyma naqshlar tushirilgan. Kandakorlikda kandakori (naqshni chuqur oʻyib tushirish), chizma (naqshlarni sayoz oʻyish) va shabaka (kesma naqshlar tushirish) usullari mavjud. Kandakorlik Qoʻqon, Margʻilon, Namangan va Buxoro viloyatlarida keng rivojlangan. Kandakorlikda mis buyumlarga naqshlar bilan birga qushlar va hayvonlarning tasviri, shartli belgilar, turli ramzlar hamda insonlarning portretlarini ham ishlash anʼanasi rivojlangan. SHu bilan birga xattotlik uslublaridan foydalanish ham kandakorlik buyumlariga boʻlgan qiziqishning oshishiga xizmat qiladi.

Kandakor oʻzida bir qator maʼnaviy-ahloqiy sifatlarni namoyon eta olishi lozim. Sabr-toqatlilik, yuksak nafosat, did, yaratuvchanlik, ijodkorlik, kasbiy faoliyatga muhabbat, halollik, sifatli xom ashyoni tanlay olish,

faoliyatda aniqlik kabi sifatlar kandakorga xosdir.

Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishga bo‘lgan individual yondashuvga ko‘ra uchrashuvning uchinchi bosqichida kandakor usta R.Fatullaevning shogirdlari bilan hamkorlikda yaratgan kandakorlik buyumlari hamda ish jarayonining namoyishlari tashkil qilindi. Namoyishlar o‘smirlarda kandakorlik hunariga bo‘lgan qiziqishni yuzaga keltirish bilan birga ularning nafosat didini tarbiyalashga xizmat qildi.

Uchrashuv yakunida respondentlarga turkum savollar berilib, ularning kandakorlikka oid bilimlari aniqlandi. Bunda quyidagi savollardan foydalanildi:

1. Kandakorlik hunari haqida qanday nazariy bilimlarga ega bo‘ldingiz?
2. Kandakorlik buyumlarini yasash jarayonida nimalarga e‘tibor qaratish lozim?
3. Kandakor qanday ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim?
4. Kandakorlikda qanday xom ashyolar va asbob-uskunalardan foydalaniladi? Mazkur savollar bo‘yicha respondentlarning javoblari umumlashtirildi (3.2.3-jadval).

3.2.3-jadval

Respondent-o‘smirlarning kandakorlikka oid bilimlari darajasi

Savollar tartibi	Tajriba-sinov guruhi Respondentlar soni – 25 nafar		
	YUqori	O‘rta	Past
1-savol	8	12	5
2-savol	6	13	6
3-savol	7	10	8
4-savol	8	10	7
Jami	29	45	26

Tajriba-sinov ishlari jarayonida ushbu uchrashuv ham texnologik yondashuv asosida tashkil etildi. Bu o‘rinda quyidagi loyihaga tayanib ish ko‘rildi (3.2.4-jadval).

## Uchrashuvning texnologik xaritasi

Tadbir mavzusi: Kandakorlik hunari fidoiylari
Tadbir shakli: uchrashuv
Ko'zlangan maqsad: Buxoro shahridagi "Hunarmand" uyushmasining a'zosi kandakor usta R.Fatullaevning ish tajribasini o'rganish orqali o'smirlarga kandakorlik hunariga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ularda nazariy bilimlarni shakllantirish.
Vaqt: 2 soat
Tadbir o'tkazilgan joy: hunarmand-tadbirkor R.Fatullev ustaxonasi
Respondentlar soni: 25 nafar
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>O'smirlarni bozor iqtisodiyoti sharoitida kandakor hunarmandlarga qo'yiladigan talablar bilan tanishtirish.</li> <li>Ularga kandakorlikning rivojlanish tarixi va milliy hunarmandchilikda tutgan o'rnini haqidagi nazariy bilimlarni berish.</li> <li>O'smirlarni kandakorlik asbob-uskunalarini va xom ashyolari bilan tanishtirish.</li> <li>Ularda kandakorga xos bo'lgan ma'naviy-ahloqiy sifatlar to'g'risidagi tushunchalarning hosil qilish.</li> </ol>
Kutilgan natija: o'smirlarda kandakorlik hunari tushuncha va bilimlarning shakllanishi, kandakorlikni o'rganishga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqning uyg'onishi.
Qo'llanilgan metodlari: og'zaki bayon qilish (hikoya qilish, tushuntirish), ko'rsatmalilik, namoyish, nazorat.
Foydalanilgan vositalar: ustaxona jihozlari, kandakorlik asbob-uskunalarini, jonli nutq, ish qog'ozlari (savollarga javob qaytarish uchun).

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining yakunlari va statistik tahlil quyidagicha xulosa chiqarish imkonini berdi:

1) Tavsiya etilgan metodika hunarmandchilik maktablari asosida yoshlarni kasbga tayyorlash kutilgan samarani berdi;

2) Tajriba-sinov jarayonida qo'llanilgan usullar tadqiqot farazi to'g'riligini tasdiqladi;

3) Tadqiqot davomida belgilangan vazifalar o'z echimini topdi.

4) Tajriba-sinov ishlarining natijalari yoshlarni kasbga tayyorlashga yo'naltirilgan metodikaning samaradorligini ko'rsatdi.

## UCHINCHI BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Hunarmandchilik maktablarida hunarmandlar oilaviy sulolalarining boy tajribasi va “Ustoz-shogird” an’anasining shakllanganligi yoshlarni kasbga tayyorlash uchun zarur sharoitlarni yaratadi. YOshlarni kasbga tayyorlash orqali mehnat va ishlab chiqarish faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashish, o‘zgarar mehnatini qadrlash, halol mehnat qilish, mehnat samaradorligidan g‘ururlanish kabi ma’naviy-ahloqiy sifatlar ham tarbiyalanadi.

YAkka tartibdagi tadbirkorlik – hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirishning eng oddiy shakli bo‘lib, bu jarayonda hunarmandlar mayda ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadilar. YOshlar hunarmandchilik faoliyatlarini tanlash uchun bu sohada nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim. O‘z ishini boshlayotgan yosh hunarmand faoliyat sohasi va mahsulot bozorini tanlashda dastavval bu yo‘lda qanday to‘siqlar mavjudligini tasavvur qila olishi lozim. Bu esa bo‘lajak hunar egasiga qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanish foydali ekanligini aniqlashga ko‘maklashadi.

Bolaga biror kasbni hech qachon majburlab o‘rgatmaslik kerak. CHunki bu ish qanchalik yaxshi niyat bilan qilinmasin, baribir yaxshi oqibatlarga olib bormaydi. Agar yoshlarda shu kasbga qiziqish bo‘lmasa, garchi ota-onaning hoxish-irodasi, majburlashi bilan kasbni egallasa ham keyinchalik uni tashlab, o‘zi qiziqqan sohaga o‘tib ketadi. Bunda ko‘pincha bolaning ota-ona tanlagan kasbni o‘rganishiga sarflagan harakati, afsuski zoe ketadi.

## UMUMIY XULOSALAR

### **YUqorida bildirilgan fikrlardan va olib borilgan tadqiqot ishlari natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelindi:**

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqimiz o‘zining qadimiy milliy hunarmandchilik an‘analarini tiklash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ayni chog‘da hunarmandchilik ishlab chiqarishini texnik jihatdan ta‘minlashni o‘stirish, hunarmandlarni kasbiy qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni xom ashyo bilan ta‘minlashni tartibga solish, hunarmandchilik mahsulotlari sifatini bozor talabiga muvofiq oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Milliy hunarmandchilikning turli sohalarini o‘rganishda yoshlar quyidagi bilimlarga ega bo‘ladilar: ma‘lum kasb-hunar sohalarining tarixi, kelib chiqishi, etnik ildizlari, xalq ustalari va ularning ijodiy faoliyatlari; hunarmandchilikning shakl va jahon madaniyatida tutgan o‘rni, sohalarining tarqalishi, jug‘rofiyasi, turlari, ularning yo‘nalishlari; mahalliy mehnat va xom ashyolarining, zahiralarning manbalari, turlari, tarqalishi, ularning hunarmandchilik markazlarining shakllanishiga va rivojlanishiga ta‘siri, hunarmandlar sulolalari, risolalari, xalq amaliy va tasviriy san‘ati hamda hunarmandchilikning o‘zaro bog‘liqligi va aloqasi va boshqalar.

Xalq hunarmandchiligining mehnat va kasb-hunar ta‘limida muntazam o‘rganilishi o‘g‘il va qiz bolalar mehnatini, qishloq va shahar maktablarida muqobil mashg‘ulotlarning tashkil etilishini va qolaversa, o‘quvchilarning ta‘lim muassasasini bitirganlaridan so‘ng doimiy ish o‘rinlari bilan ta‘minlanishlarini ma‘lum tartibga soladi.

Garchi “tadbirkor” atamasi bozor munosabatlarining muhim tayanch tushunchasi sifatida qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, aytish mumkinki, uning etimologik rivojlanishi kishilik faoliyatining muhim ko‘rinishi bo‘lgan hunarmandchilikning shakllanishi bilan bog‘liq. Hunarmandchilik SHarq xalqlari turmush tarzida o‘ziga xos o‘rin tutadi hamda oila a‘zolarining

barchasini muayyan ishlab chiqarish faoliyatiga jalb eta olish xususiyatiga ko'ra muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. SHu bilan birga hunarmandchilik oila daromadini shakllantirish va jamg'arma orttirish imkoniyatini beruvchi faoliyat turi ekanligiga ko'ra tadbirkorlik bilan o'zaro uyg'unlik hosil qiladi.

“Ustoz-shogird” an'anasi o'smirlar bilan bevosita ishlash, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, mavjud iqtidorlarining yanada rivojlantirilishi uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan yanada ahamiyatlidir. Bu kabi holatlar o'smirlarni nafaqat tadbirkorlik ko'nikmalarini, balki mehnat va ishlab chiqarish faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish, o'zgarlar mehnatini qadrlash, halol mehnat qilish, mehnat samaradorligidan g'ururlanish kabi ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

**Tadqiqot va tajriba-sinov ishlarining umumiy natijalariga tayangan holda, hunarmandchilik maktablarida yoshlarni kasbga tayyorlash jarayonini takomillashtirish maqsadida, quyidagi TAVSIYALARNI ilgari suramiz:**

1. Hunarmandchilik maktablarida yoshlarni kasbga tayyorlash bo'yicha xohish-istak va mayllarini aniqlash maqsadida amaliyotchi-psixologlari va ota-onalar ishtirokida tashxis tizimini shakllantirish.

2. Hunarmandchilik va shu asosda kichik tadbirkorlikni yo'lga qo'yish borasidagi xorijiy mamlakatlar va mintaqada erishilayotgan yutuqlar bilan yoshlarni muntazam tanishtirib borish maqsadida ta'lim muassasasi va “Hunarmand” uyushmalarining o'zaro hamkorlikni mustahkamlash.

3. Xalq hunarmandchiligi va uning kasbga tayyorlash borasidagi ustuvor jihatlari, ilg'or tajribalari hamda tarbiyaviy ta'siridan samarali foydalanish maqsadida ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish.

4. Joylardagi “Ustoz-shogird” maktablarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston, 1998. – 48 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 20-29-b.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 31-61-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 31 oktyabrdagi “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy bezak san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari haqida”gi Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2006 yil 6 yanvarda tasdiqlangan “Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 mayda qabul qilgan PF-4725 sonli “Xususiy mulk, kichik biznes, va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni.
7. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
8. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent, O‘zbekiston, 1997.

9. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”, 2008. -176 b.
10. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
11. Abdullaev A. Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur. – Toshkent, Ma'naviyat, 1999. – 104 b.
12. Abdullaev T. XIX-XX asrlarda o'zbek kandakorligi. – Toshkent, Fan, 1974. – 127 b.
13. Abulqosimov H., Abdullaeva R. Hunarmandchilik rivoji va tadbirkorlik // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, -№3. 2000. – B. 71.
14. Asamova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi: Psix.fanl.nomz. ... dis.avtoref. – Toshkent, 2002. – 28 b.
15. Baratov SH. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. – Toshkent, O'qituvchi. 1995. – 56 b.
16. Boboqulov S. O'quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish metodikasi. Ped.fanl.nomz. ... dis.avtoref. – Toshkent, 2005. – 21 b.
17. Bositxonov Z. Ganchkor san'ati. Adabiyot va san'at. – Toshkent, 1978. – B. 50.
18. Bulatov S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och o'ymakorligiga oid atamalar. – Toshkent, Mehnat, 1991. – 94 b.
19. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent, Mehnat, 1991. – 384 b.
20. Bulatov S., G'ulomov S. SHarqona ustoz-shogird odobi. – Toshkent, 2000. – 62 b.
21. Bulatov S., Haydarov M, Hunarmandchilik duolari. – Toshkent, TDPU, 1994. –70 b.
22. Vorob'ev A.I. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi. – Toshkent, O'qituvchi, 1980. – 238 b.
23. Davlatov K.D. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash. –Toshkent,

- O'qituvchi, 1978. –144 b.
24. Javliev T. An'analar hayot sabog'i. – Toshkent, O'zbekiston, 1992. – 91 b.
  25. Jumaev U.S. O'smirlarda kasb tanlashga munosabat tizimini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari: Psix.fanl nomz. ... dis.avtoref. – Toshkent, 2004. – 21 b.
  26. Jo'raev K. O'smirlarni o'zlikni anglash va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2005. -№2. – B. 55-58.
  27. Zohidova D.A. Hunarmandchilikka kirish / Metodik tavsiyanoma. – Toshkent, O'MKXTRI, 2001. – 52 b.
  28. Irisqulov B. Oila tadbirkorligi // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2004. -№5. – B. 33.
  29. Kamolova N.A. O'quvchi-yoshlarda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fanl.nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2006. – 23 b.
  30. Kenevskiy E.M., Krasynskiy E.V., Lisov M.M. Turmushda tejamkorlik sirlari / Ruscha nashrdan tarjima. – Toshkent, O'qituvchi, 1988. – 192 b.
  31. Krutetskiy V. A. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent, O'qituvchi, 1976. – 304 b.
  32. Mazur V.A., Davidova F.T. Milliy hunarmandchilikka o'qitish jarayoni mazmuni va uni tashkil qilish / Metodik tavsiyanoma. B.Rahimjonov tarjimasi. – Toshkent, XTITI, 1995. – 24 b.
  33. Ma'danga bitilgan qo'shiq / T.Abdullaev va boshqalar. – Toshkent, Adabiyot va san'at, 1986. – 251 b.
  34. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi / K.D.Davlatov va boshq. – Toshkent, O'qituvchi, 1992. – 320 b.
  35. Oila pedagogikasi / Prof.O.Xasanboeva umumiy tahriri ostida. – Toshkent, Aloqachi, 2007. – 384 b.
  36. Ortiqova M. Hunarmanlar shahri (YOshlarni kasb-hunarga va

- tadbirkorlikka o'rgatishning SHahrixon tajribasi). – Toshkent, Zarqalam, 2006. – 128 b.
37. Raimov X., Hakimov A. Talabalar tadbirkorlik faoliyatining ma'naviy asoslarini shakllantirish // Ta'lim va tarbiya. – Toshkent, 2003. -№ 3-4. – B. 50-53.
  38. Salaev S. Kasananachilik faoliyatini rivojlantirish asoslari // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2007. -№2. – B. 96.
  39. Sanaqulov. X.R. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kasb-hunarga qiziqishlarini mehnat an'analari asosida tarbiyalash: Ped.fanl.nomz. .. dis. avtoref. – Toshkent, 2001. – 18 b.
  40. Sarsenboeva R. Xalq hunarmandchiligida o'quvchilar mehnat uyushmasini tuzish – bugungi kun talabi // Ta'lim va tarbiya. – Toshkent, 2001. -№3-4. – B. 30-31.
  41. Usmonov X., SHodiev N., Abdurahmonova M. Marg'ilon hunarmandlari.–Farg'ona: 2000. – 32 b.
  42. Umarova X. Boshlang'ich ta'limda iqtisodiy bilimlarni o'rganishga yo'naltirilgan moduli texnologiyalarning didaktik asoslari: Ped.fanl.nomz. ... dis.avtoref. – Toshkent, 2006. – 25 b.
  43. Xudoyqulov X.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari: Ped.fanl.nomz. ... dis.avtoref. – Toshkent, 2005. – 28 b.
  44. Xudoyqulov X.J. YOshlarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2003, -№3. – B. 34-35.
  45. Xudoyqulov X.J. SHarq mutafakkirlari iqtisod odobi haqida. – Toshkent, TDAI. 2005. – 100 b.
  46. Xo'janov N., Hasanboev J. Iqtisodiy pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent, TDPU, 2002. – 128 b.
  47. SHepelenko R.I. Ekonomika, organizatsiya, planirovanie na proizvodstve. – Rostov-na-Donu: Izdatelkiy sentr "Mart", 2000. – 544

st.

48. SHodieva G., Pardaev M. Kasanachilik oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda yangicha yoʻnalish // Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2006. -№3. – B. 51-55.
49. SHoniyozov K. Oʻzbek xalqining shakllanish jarayoni / Tahrir hayʼati: D.A. Alimova va boshqalar. – Toshkent, SHarq. 2001. – 464 b.
50. Ekonomicheskaya teoriya / Uchebnik dlya VUZov. Pod redaksiyey V.D.Kamaeva. 4-e izd. pere., dop. – M.: Vlados IMPE, 1999. – 636 s.
51. Ergashev F. Turkistonda hunarmandchilik va pillachilik // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2004. -№3. – B. 13-14.
52. Eshmetov SH.A. Ustoz-shogird munosabatlarining ijtimoiy-psixologik fenomenlari: Psix.fanl.nomz. ... dis.avtoref. – Toshkent, 2004. – 23 b.
53. Oʻlmasov A. Oila iqtisodi / Risola. – Toshkent, Mehnat, 1998. – 47 b.
54. Qilichev R. Turkistonda hunarmandlarning oʻzini-oʻzi boshqaruv tartibi // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2004. -№3. – B. 39–40.
55. Qudratov A. Taʼlim tizimida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari // Kasb-xunar taʼlimi. – Toshkent, 2004. -№3. – B. 4-5.
56. Qosimova M.S., Xodiev B.YU., Samadov A.N., Muhitdinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. – Toshkent, Oʻqituvchi, 1995. – 123 b.
57. Quvondiqov SH. Xizmat sohalarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish // Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2007. -№7. – B. 61-62.
58. Qurbonov Sh., va boshqalar. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). –T.: Sharq, 1998.
59. Gʻoziev E. Psixologiya. YOsh davlari psixologiyasi. – Toshkent, Oʻqituvchi, 1994. – 224 b
60. Gʻoziev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – Toshkent, OʻzMU, 2003. – 156 b.
61. Gʻulomov S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Toshkent, SHarq, 2002. –

365 b.

62. Hayitov O. Tadbirkorlik faoliyati motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psix.fanl.nomz. ...dis.avtoref. – Toshkent, 2005. – 25 b.
63. Hayitov O. YAngicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish. – Toshkent, O‘zbekiston. 1989. – 31 b.
64. Hakimov R.R. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped.fanl.nomz. ... dis. – Toshkent, 2005. – 135 b.
65. Hasanboev J., Turopova M., Hasanboeva O. Ma’naviy-ahloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent, G‘.G‘ulom. 2000. – 110 b.
66. Hasanov A., Mirzaxo‘jaev S. Oilada tejamkorlik sirlari. – Toshkent, O‘qituvchi, 1999. – 95 b.
67. Hasanov S. Mutaffakirlar mehnat tarbiyasi haqida. – Toshkent, O‘qituvchi, 1993. – 144 b.
68. Hojiev B. Kichik va o‘rta tadbirkorlikning ahamiyati // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2004. -№4. – B. 34-35.
69. Xasanova N. YOsh mutaxassislarni mehnat bozorida raqobatdoshligini oshirish. O‘quv qo‘llanma. –T.: Akademiya, 2014.
70. Eshmetov SH.A. Ustoz-shogird munosabatlarining ijtimoiy-psixologik fenomenlari: Psix.fanl.nomz. ... dis.avtoref. – Toshkent, 2004. – 23 b.
71. YUNESKONing “Texnikaviy kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida”gi Konvensiyasi. 1998 yil, 10 noyabr.

#### **Internet ma’lumotlari:**

1. [http://sharh.uz/jamiyat/item/358-hunarmandchilik-faoliyati-uchun-  
imtiyozlar](http://sharh.uz/jamiyat/item/358-hunarmandchilik-faoliyati-uchun-<br/>imtiyozlar)
2. [http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/hunarmand.  
tadbirkorlik.rivojlantirish](http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/hunarmand.<br/>tadbirkorlik.rivojlantirish)